

ABDUPATTO IBRAGIMOV AHMADJANOVICH

VOKAL VA ZAMONAVIY MUSIQA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ABDUPATTO IBRAGIMOV AHMADJANOVICH

VOKAL VA ZAMONAVIY MUSIQA

O'QUV QO'LLANMA

60111301- "Musiqqa ta'limi" ta'lim yo'nalishi

TOSHKENT

"O'ZKITOBSAVDONASHRIYOT" NMIU

2023

UO'K: 78(07)

KBK: 74.266.7

Taqrizchilar:

S.Mannopov – O'zbekiston xalq artisti, professor, Turon FA akademigi.

Q.Panjiev - Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti (musiqa nazariyasi va kafedrası dotsenti) sa'atshunoslik fanlari nomzodi Turon FA akademigi.

G'.Najmiddinov – Qo'qon davlat pedagogi instituti p.f.n dotsent

Vokal va zamonaviy musiqa. O'quv qo'llanma // Ibragimov A. - "O'ZKITOBSAVDONASHRIYOT" NMIU, Toshkent – 2023, 172 bet.

Mazkur o'quv qo'llanma Oliy ta'lim muassasalarining pedagogika sohasi bakalavriat bosqichi "Musiqqa ta'limi" ta'lim yo'nalishi "Vokal va zamonaviy musiqa" fani dasturi asosida yaratilgan. Mazkur o'quv qo'llanma ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda vokal va zamonaviy musiqaning o'ziga xos umumnazariy masalalarini bilan tanishtirilsa, ikkinchi qismda vokal asarlarining nota asarlarini bilan tanishibgina qolmasdan, o'zlarida ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantiradilar. O'quv qo'llanmadan musiqa fani o'qituvchilari, musiqa to'garagi a'zolari hamda Musiqa ta'limi yo'nalishi talabalari foydalanishi mumkin.

Учебник основан на программе «Вокал и современная музыка» бакалавриата педагогики высшего профессионального образования «Музыкальное образование». Учебник состоит из двух частей, первая часть знакомит с общими вопросами вокала и современной музыки, а вторая часть не только знакомит с нотами вокальных произведений, но и развивает их исполнительское мастерство. Учебник может быть использован учителями музыки, членами музыкальных кружков и студентами музыкального образования.

This textbook is based on the program "Vocal and modern music" of the bachelor's degree in pedagogy of higher education "Music Education". The textbook consists of two parts, the first part introduces the general issues of vocal and modern music, and the second part not only introduces the notes of vocal works, but also develops their performance skills. The textbook can be used by music teachers, members of music clubs and students of music education.

ISBN: 978-9910-756-45-0

© Ibragimov A., 2023
© "O'ZKITOBSAVDONASHRIYOT" NMIU, 2023

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarim yilligidan boshlab, mamlakatimizda vokal va zamonaviy musiqa san'ati kirib kela boshladi. Bugungi kunda kelib, bu fan aholining barcha ijtimoiy qatlamiga yoshi, dini va ijtimoiy maqaidan qat'iy nazar birdek kirib keldi. Mazkur fan asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining estetik va badiiy didini tarbiyalash, vokal xonandaligi bo'yicha ijrochilik mahoratini professional uslubda egallash, uning nazariy xususiyatlarini tushunish, amaliy jihatdan kuylash ko'nikma va tajribalarini shakllantirishga katta yordam beradi.

“Vokal va zamonaviy musiqa” fani doirasida tayyorlangan mazkur o'quv qo'llanma soha mutaxassislari olimlari, jumladan, san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent, Turon Fanlari Akademiyasi akademigi Q.Panjiyev va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlariga, shuningdek, vokal ijrochiligi, xonandalik asoslariga oid o'quv adabiyotlari va bir qator xorijiy olimlarning kitoblariga asoslangan holda yaratilgan bo'lib, asosan Oliy ta'lim muassasalarining pedagogika sohasi bakalavriat bosqichi “60111301-Musiqa ta'limi” ta'lim yo'nalishlarining talabalariga mo'ljallangan.

Soha mutaxassislari, professor-o'qituvchilar va talabalar yana bir masalaga alohida e'tibor qaratishi lozim bo'ladi-ki, bu umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchi yoshlarni tovush apparatining texnik rivoji, artistik mahoratini rivojlantirish va yuqori badiiy saviyada tarbiyalashga qaratilgan bilimlar majmuidir. Bunda ta'lim ishtirkchilari o'zlarining bor bilim, ko'nikma va tajribalari bilan qurollantirishdan iboratdir. Shular bilan bir qatorda talaba vokal ijrochiligining zamonaviy ko'rinishlari bilan ayniqsa, mamlakatimizda raqamli texnologiyalariga o'tish barobarida jahon musiqiy dasturlar yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

I-QISM. O'ZBEKISTONDA VOKAL SAN'ATI TARAQQIYOTI: TARIXIY ILDIZLAR

I-BOB. VOKAL XONANDALIGI SAN'ATI TARIXI

O'zbek vokal ijrochiligining ilk shakllanish jarayonlari

O'zbek vokal san'ati elementlari va uning ilk ildizlarini juda qadimgi davrlarda borib taqalishi xususida O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasi B.Turg'unov, Sh.Pidaev va boshqalar tomonidan Eski Termiz atrofida va qolaversa, Dalvarzintepa hamda Shimoliy Baqtriya madaniyatini o'rganish bo'yicha olib borilgan qazilma ishlarida topilgan me'moriy obidalarda vokal xonandaligi san'ati bo'yicha juda qimmatli ma'lumotlarni beradi. Topilgan me'moriy obidalarida tasviri tushirilgan musiqa cholg'ularning tarixi eramizdan oldingi I-II ming yillikka borib taqalishini ko'rsatib o'tgan. O'tgan bu zaxmatli, suronli davrlarda vokal musiqa madaniyati o'zining uzoq va sermahsul rivojlanish yo'llarini bosib o'tdi. Qolaversa, garchan o'sha asrlarda aholining ma'naviy boyligi sifatida ezgulik va taraqqiyot uchun xizmat qilib, uning shonli tarixiy yo'lini belgilab berdi. Shu jihatlari uchun ham biz juda boy, rang-barang, tarixan uzoq o'tmishlardan aks sado beruvchi keng ko'lami, usluban rang-barang, qiymati chin ma'noda bebaho va ulug'vor o'zbek musiqiy merosining yuksalishi, dunyo xalqlari musiqa madaniyatida o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatib keldi.

Darhaqiqat, O'rta Osiyoda dastlab, islom dinidan oldin va uning keng yoyilishi "Etti maqom", O'rta asrlarda kelib, o'zbek va tojik xalqlarining mumtoz musiqa madaniyatining gultoji hisoblangan va ijodkorlikning yuksak namunasi bo'lgan "O'n ikki maqom" (Duvozdah maqom)dek muxtasham musiqiy tizim, uning negizida XX asarlarga kelib esa Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqom turkumlari hamda Farg'ona-Toshkent maqomlari, xalq musiqasi, an'anaviy ijrochilik, doston va do'mbira ijodiyoti, changqobuz, nay, surnay yo'llari, bastakorlik ijodkorligi, baxshi-shoir, jirov va terma ijodkorligi musiqa madaniyatimizning sarchashmalari sifatida jadal rivojlandi va rivojlanib kelmoqda.

Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalqining musiqa merosi og'izdan-og'izga, ustozdan shogirdga, otadan-o'g'ilga, onadan-qizga o'tib kelgan ma'lum vaziyat va sharoit bilan chegaralangan (oilaviy marosim, mavsumiy

marosim, mehnat qo'shiqlari hamda diniy aytilmalar), erkin mavzuli (lapar, yalla, terma, qo'shiq) va dostonlar, mumtoz maqom asarlari - Shashmaqom, Toshkent-Farg'ona maqomi, Xorazm maqomlari kabi ko'plab musiqiy janrlardagi asarlar musiqa san'atining an'anaviyligi va bardavomligini ta'minlab kelmoqda. Bugungi kunda ular milliy ma'naviy musiqa qadriyatlarimizning asosini tashkil qiladi.

Milliy musiqiy madaniyatning poydevori hisoblangan mumtoz asarlarni oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, shu jumladan, maktabgacha ta'lim, maktabdan tashqari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik-litsey va kasb-hunar kollejlarning o'quvchi yoshlari hamda bakalavriat bosqichi talabalari orasida targ'ib qilish, ang avvalo o'qitish ishlarini tashkil etish, millatimizning ulkan nodir boyliklaridan ularni bahramand etish, eng asosiysi musiqa an'analarini bardavomligini ta'minlashdan iboratdir.

Vokal xonadalik ijrochiligi tarixi

O'zbekistonda vokal xonandaligi san'atining asoslarini, uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganar ekanmiz jahon vokal xonandaligi maktablari tarixiga nazar tashlashimiz lozim bo'ladi. Respublikamizda esa vokal akademik kuylash uslubi asosan rus xonandalik maktabi tajribasiga tayanib, bugungi kunga kelib, o'zning xozirgi mavqeiga ega bo'ldi. O'z o'rnida rus vokal akademik xonandaligi irmoqlari esa - rus xalq qo'shiqlarining o'ziga xos kuychanligi, kuyning tor, ba'zan, kengligi va ma'nosining boyligini o'ziga jamladi. O'ziga xosligi va mosligini avaylagan xolda rus xonandaligi maktabi Italiya, Frantsiya va Germaniya, Polsha, Vengriya, umuman Evropa vokal akademik xonandaligi maktablarining boy udumlarini o'zlashtirdi. Ayniqsa, uning bu kabi yuksak ijrochiligi rivojiga o'z xissasini qo'shganlardan G.Lamakinni nomini faxr bilan aytib o'tishimiz lozimdir. U 1837 yilda yaratgan "Metodu peniya-1" va "Metodu peniya-2" asarlari, qolaversa, F.Evseev tomonidan 1833 yilda chop etilgan "Shkola peniya" asari, A.Varlamovning "Polnaya shkola peniya" kabi asarlaridagi ijrochilik an'analaridagi zamonaviy kuylash printsiplari bilan hamohang va chambarchas bog'liqligini ko'rish mumkin.

Rus xonandaligi maktabining rivojiga katta xissa qo'shganlardan, Glinkaga qadar davr bastakorlarini birinchi vokal asarlari mualliflari deb ham hisoblashadi. Bular, D.Bortnyanskiy, A.Verstovskiy, A.Gurilyovlardir.

Lekin, milliylik, haqiqiy rus koloritini o'zida to'liq namoyon etgan asarlarni aslida Glinkaning ijodida ko'rish mumkin. Glinka rus klassik xonandaligi maktabining asoschisidir. Bunga 1836 yil 27 noyabrda namoyish etilgan "Ivan Susanin" operasi prem'erasi sabab bo'ldi. Rus bastakorlari milliy musiqaning an'analarini saqlagan holda unga yangi intonatsiyalar, usul va garmoniyalar olib kirdilar, bu xonandalik musiqasining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi va xonandalar oldiga yangi vazifalar qo'ydi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, rus xonandaligi maktabidagi musiqiy ifoda, uslublarining ko'p qirraligi hamda ijroda asosan yuqori ovoz imkoniyatlaridan keng foydalanishi bilan ajralib turadi. Bu uslublarga ega inson barcha tillarda a'lo darajada kuylay olishi mumkin. Bunda nafasdan foydalanish, tanglay ish faoliyati, ya'ni rezonatoridan foydalana bilish, matnga yuqori e'tibor berish va badiiy haqiqat yaratish katta ahamiyatga egadir.

Vokal san'atining boshqa milliy xonandalik maktablaridan farqli, rus xonandalik maktabi italyan belkanto uslubini o'zida mujassam etdi va rivojlantirdi. Buning asosiy jihatlari rus tilidagi italyan va ukrain tillariga o'xshash unli harflarning kuychanligi sabab bo'ldi. Vokal xonandaligining akademik yo'nalishida barcha millat vakillari kuylay oladilar, lekin doim talaffuz etishda o'zgarish ro'y beradi. Atoqli rus akademik vokal xonandaligi bo'yicha mutaxassis pedagog L.Dmitriev "Til ovoz naychalarining vibratsion ishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, ta'sir ko'rsatibgina qolmay kekirdak faoliyatida ham katta o'rin egallaydi" deb ta'riflaydi. Iste'dodli vokal akademik yo'nalishda kuylovchi xonanda uchun kuylash qancha oson bo'lsa, milliy yo'nalishda kuylash xam shuncha oson bo'ladi. O'zbekistonda bu ikki yo'nalishda kuylagan xonandalar bor, bular xalq artistlari K.Zokirov, N.Xoshimov, S.Yarashev, A.Azimov, S.Kobulova va boshqalardir. Bularning nomlarini faxr bilan tilga olish joizdir. Chunki, bu xonandalari o'zbek vokal ijrochiligining poydevorini qurgan buyuk ijrochilar sanaladi.

Rus professional musiqasi aynan xonandalik san'atining rivojida katta o'rin egalladi. Glinka "Musiqani xalq yaratadi, bastakorlar unga sayqal beradilar" – degan edi. Haqiqatdan xam rus xalq qo'shiqlari rus bastakorlarining ilxomlanish manbai bo'ldi. Uning asosida birinchi rus opera asarlari sahna yuzini ko'rdi. Rus opera san'atiga asos solindi, dastlabki opera yaratildi. Rus professional xonandalarining etishib

chiqishiga Rossiyada cherkovlarida doimiy aytilib kelingan ibodat aytimlari va sanolar katta turtki bo'ldi. Kiev Rusida xristian dinining to'la qabul qilinishi nafaqat dinga xizmat qiluvchilarga, balki musiqiy savodi bor xonandalarga bo'lgan ehtiyoj va talabni yuzaga keltirdi. Manastirlar qoshidagi maktablarda xonandalar musiqa savodini to'liq o'rganishga harakat qildilar. Qadim rus cherkov musiqasi to'liq jo'rsiz kuylashga asoslandi. Musiqiy sozlar jo'rligida ijro etish taqiqlangan. Shu tariqa - rus xalq qo'shiqlari va cherkov qo'shiqchiligi, xonandalik madaniyati, professional akademik ijrochiligining dunyoga kelishida va rivoj topishida muhim o'rin egalladi. XVII asr o'rtalarida va XVIII asr boshlarida rus san'atida musiqiy teatrlar tashkil etish uchun ilk harakatlar bo'ldi. Pyotr davrida Kunst boshchiligidagi 7 kishidan iborat aktyorlar guruhi taklif qilindi va ilk bor ariya, ariozo asarlari kiritilgan tomoshalar omma e'tiboriga namoyish etila boshlandi. 1735 yilda Rossiyaga F.Aranya boshchiligidagi italyan opera truppassi doimiy faoliyat uchun taklif etildi. Italyan operasi rus zaminida ildiz ota boshladi. Bu davrda Rossiyada opera mutloqo yangi san'at turi sifatida kirib kelgan bo'lsa, Italiyada bu san'at yarim asr maboynida ijro etilib, nafaqat mahalliy aholini balki butun Evropani qamrab olib ulgurdi.

Opera yangi janr sifatida evropa madaniy uyg'onish davri ta'sirida dunyoga keldi desak hech ham mubolag'a bo'lmaydi. O'sha davrlarga xos polifonik uslub kuylovchining xissiyotlarni bildirishga imkoniyat bermasada, biroq, so'z ko'povozli musiqa sayqali ichida yo'qolib, ma'nosiz, mazmunsiz va tushunarsiz bo'lib qolardi. Ilg'or musiqachilar guruhi o'z ijodlariga gomofon uslubni qaytarib, musiqa so'zga asoslanishi kerakligini ko'rsatdilar. Bu izlanishlar zaminida yangi musiqiy gomofon shakildagi jo'rli opera, kantata, yakka ovozlar uchun asarlar yaratildi, bu rus vokal san'atining o'ziga xos natijali izlanishlarini ro'yobga chiqardi. Rossiyaga italyan operasi kirib kelayotgan vaqtda italyan belkantosi - yuqori xonandalik mahorati ikkinchi davrni o'z boshidan o'tkazayotgan edi. Bu betakror kastrat-xonandalarining o'ziga xos kuylashning yuqori cho'qqissini egallagan ustalarining san'atdagi hokimligi davri edi.

Italiya akademik xonandalik san'atining ulkan rivoji boshqa davlatlarning musiqiy va xonandalik san'ati rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. G'arb durdonasi sanalgan - opera bir pastda Rossiyaga kirib keldi, biroq u o'tgan davrda juda qiyinchilik bilan saroy

ahli tomonidan qabul qilina boshladi. Jiddiy opera zerikarli tuyilar, mahorat bilan ijro etilayotgan kuylash odatiy emasdi. Ko'proq xor musiqasi ijrochiligiga ahamiyat berilar edi. Bu ajablanarli xolat emas, chunki, Italiya operasining paydo bo'lish davrigacha xor san'ati o'zining kulminatsion nuqtasiga alla qachon chiqib ulgurgan edi. Xor yuqori saviyada rivoj topib, o'zining bir qator muxlislariga ega bo'lib ulgurgan edi. Evropaning hech qaysi davlatida xor asarlari bu tariqa ko'p o'z muxlislari va ijrochilik maktabiga ega emas edi.

Bastakor Arayya Rossiyada 25 yil faoliyat ko'rsatdi. Elizaveta Petrovna davrida operaga borishga odamlar majbur etilardi. Ekaterina davriga kelib operaga borish sevimli madaniy xordiqqa aylandi. Musiqa va kuylashni o'rganish tarbiyaning muhim bo'lagi sifatida qabul qilindi. Mahalliy xonanda va musiqa ijrochilarini tayyorlashni taqazo etuvchi farmonlar qabul qilinib, uning nazorati jiddiy e'tiborga olinar edi. Bu davrga kelib birin-birin turli xonandalik maktablari yuzaga kela boshladi. Shunday xonandalik maktablaridan biri "Gluxov xonandalik maktabi" edi. Bu erda diniy qo'shiqchilik san'ati o'rganilishi bilan birgalikda, dunyoviy qo'shiqchilik ham o'rganila boshlandi.

Rus bastakorlarining dastlabki vokal asarlari qarama-qarshi fikrlarlar kuchaygan bir davrga to'g'ri keldi. Bunga asosan saroy ahlining ko'pchiligi yangi san'atni rivojiga to'sqinlik qilardilar. Rus madaniyati arboblari yangi opera yaratilishiga behisob hissa qo'shdilar. Yangi san'at milliy demokratik, ayrim hollarda esa Krepostnoy tizimga qarshi edi. Operalarning bunday tavsiflanishi, ularni yaratgan mualliflarning sobiq Krepostnoy yoki past tabaqadan chiqqan insonlar ekanligidandir. Bular E.Fomin, M.Sokolovskiy, M.Matinskiy, D.Kashin va boshqalar.

Rus opera xonandalari o'ziga xos tarzda edilar. Ammo, Italiya xonandalik maktabining rus xonandalik ijrochiligiga ta'siri shubhasiz katta edi. Buning oqibatida XVIII asrning 30-yillariga kelib, Italiyan vokal musiqasi ijrochilari har yili Rossiyaga ijodiy safar qila boshladilar. Rus xonandalari mukammal nafasga tayangan holda ovozda chuziq oxang hosil qilish, kolorotura¹ ovozi va boshqa texnik usullar bilan ishlashni o'rgandilar.

¹ Колоратура – италянча coloratura – безаш, куйни турли майда ўлчовдаги товушлар билан бежаш. Колоратура ижрочи хонанда (ашулачи)нинг маҳоратига боғлиқ, Колоратура XVII асрда итаल्याда пайдо бўлиб, XVIII асрда кенг тараққий қилди.

Rossiyada milliy opera yaratgan bastakorlar - xonandalikdan dars beruvchi birinchi o'qituvchilar bo'lganlar. Evstigney Fomin "Yamshiki na podstave" milliy operasi avtoridir. M.Stepanova, I.Samoylova va O.Petrovalarni opera sahnasiga tayyorlagan Ivan Alekseevich Rutin eng yaxshi o'qituvchilardan bo'lgan.

Bastakor Bortnyanskiy saroy qoshidagi kuylash kapellasida katta pedagogik faoliyat ko'rsatgan. Uning asarlaridagi bosiq kuychan oxang, yuqori notalarning yo'qligi, ovoz hosil qilishdagi qulay tessitura² ovozning rivoj topishiga yordam bergan. Bu xonandalik san'ati rivojida katta ahamiyat qozongan. XVIII asr oxirida Rossiya xonandalik pedagogikasi tashkil topishiga, bastakor, dirijyor va xonandalik o'qituvchisi Katerino Kavaso katta xissa qo'shdi. U nafaqat ijrochilarni, balki mutaxassis o'qituvchilarini ham tarbiyaladi. Bular Kovalyova, Shelexov, Turik va boshqalar edi.

Rus xonandalik maktabining poydevori o'rnatilishida rus xonandalarining artistik faoliyati ham muhim va shu sohani kng yoyilishiga o'ta ahamiyatli o'rin egalladi. O'zining a'lo darajadagi qobiliyati, ovozni ishlatish texnikasi, sahna mahoratidagi jihatlari va ma'noli ijrosi bilan tinglovchilarni lol qoldira olgan aktyorlar A.Mixaylova, N.Semyonova, A.Krutitskaya, Ya.Vorobyova, N.Zlov, N.Lavrov va boshqalarni nomlarini sanab o'tmaslikni iloji yo'q. Rus xonandalarining ijrochilik uslubini shakillanishi va bastakorlarning dasturlarini targ'ib etilishi tilga olingan XVIII asr II-choragida Moskva katta teatri rahbari A.Verstovskiy ni eslamay bo'lmaydi. Verstovskiy obrazning yaratilishida - oddiy, keng va mazmunli kuy - ohng asosiy omil deb hisoblaydi. Verstovskiy operalari rus xonandalik uslubini shakillantirdi, xonandalarni milliy ruxda tarbiyaladi.

Rus xonandalarining ijrochilik uslubining shakillanishiga ular tomonidan Frantsuz opera dasturini ijro etganliklari ham ta'sir ko'rsatdi. XVIII asr o'rtasida Rossiyaga frantsuz trupпасi taklif etildi. Xonandalik san'atining rivojida romanslar ham katta o'rin egalladi. G.Teplov va F.Dubynskiy - birinchi rus romansini bastalaganlar. Rus bastakorlarining kamer xonandalik yo'nalishida ijod etgan yirik namoyondasi O.Kozlovskiy

² Тесситура - италиянча tessitura чолгу асосбоби ёки киши овозининг бирор мусиқа асарида ишлатилган энг пастки ва юқори товушлари оралиғи.

edi. "Delitant" - deb atalgan bir gurux iste'dodli bastakorlarni ijodiy faolligi davri XIX asr boshlariga to'g'ri keladi. Titov shu guruh vakilidir. Rus romansi ustalari A.Alyaboev, A.Varlamov, A.Gurilyov, N.Bulakovlarni xalq qo'shiqlari va shahar romanslari ta'sirida yozgan asarlari o'zining soddaligi, yurakka yaqinligi bilan ijrochilarni o'ziga rom eta olgan. Shunday qilib xonandalik san'ati o'zining 100 yillik, Italyan operasi kirib kelgan davrdan, birinchi rus klassik operasi "Ivan Susanin" yaratilgunga qadar davrida juda qiyin va o'ta zarur bosqichni bosib o'tdi. Rus xonandalari italyan va frantsuz maktablarining texnikasi, madaniyatini o'rgangan xolda milliy ijrochilikka sodiq qoldilar. Rus milliy qo'shichilik maktabining asosiy xususiyatlarini tavsiflab beruvchi omillarni uning gullagan davri, XIX asr oxirlarida ijod qilgan xonandalar asarlarida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

XX asr rus vokal xonandaligi

Butun asr davomida rus musiqasi uslubi muammolarining roli o'sib bordi. Mumtoz uslubning universalligidan voz kechib, kompozitorlar o'z tajribalarining organik kabi masalaga to'qnash keldilar. Uslub kategoriyasining ahamiyati kuchaya bordi. Ya'ni kasbning ma'lum qonunlari bo'yicha musiqqa yaratish muammosi birinchi o'ringa chiqib qoldi. Bu borada birinchilardan bo'lib yorqin iste'dod egasi I.Stravinskiyni xizmatlari katta bo'ldi. Stravinskiy har doim o'z kasbining ustasi bo'lishni yoqlab, his-tuyg'ularni keyinroqqa surdi. Bu o'z badiiy maqsadlari bilan farqlanuvchi ko'pgina kompozitorlarning ish uslubi edi. Prokofev, Shyonberg, Vebern, Pulenk va boshqalar Stravinskiy tutgan yo'lni qo'llab quvvatladilar. Ana shunday asosda usullar plyuralizmi ya'ni, begona, ko'p hollarda juda teskari usullar modellari bilan ishlash yuzaga keldi. Bunda albatta tarixiy dialog: o'zimizniki - begonaniki bo'lishi lozim degan g'oya, shuningdek, bundan tashqari bunday usullashtirish (stilizatsiya)ga til va janr ham qo'shildi. XX asr ikkinchi yarmida juda keng tarqalgan musiqiy faoliyatning ko'p usulligi (polistilistika) rivojlandi.

Usul plyuralizmini - ya'ni madaniy hayotni bir asarning matniga ko'chirish. Matnda usullar to'qnashuvi aniq bir dramaturgik g'oya bor vaqtdagina bo'lishi mumkin, aks holda bu bema'no hatti harakatga olib keladi. Ko'p usullilik odatda «usul yordamida umumlashtirish»ning timsoliy vositasiga aylanadi. Ko'p usullilik musiqiy asar mazmuni haqidagi

tasavvurlarni o'zgartirdi. Musiqa uning tarixi, musiqiylikning qadr-qimmatini va musiqiylikning turli xil ko'rinishlarining bema'noligi mazmunga baholash va madaniy ko'rinish berdi. Usul bilan ishlashning navbatdagi bosqichi karama-qarshilik emas, balki turli xil janrlarni qo'shishdan iboratdir. Ular aniq bo'lmagan xissiyotlarni uyg'otadi, simbolikani matnga kiritib, unga ma'noli hajm ko'rinishini beradi.

XX asr - bu Evropaga xos bo'lmagan milliy madaniyatlar kompozitorlik ijod yo'llarining boshlanish asridir. Milliy yozuv me'yorlarini ishlab chiqishda yangi milliy kompozitorlik maktablari o'z badiiy tajribalarigagina emas, balki boshqa xalqlarning kompozitsion musiqa san'ati sohasida erishgan yutuklariga ham tayanadilar. Bunda ular o'z milliy ruhlari va milliy musiqiy madaniyatlari intonatsion ruhiga yaqin bo'lganlarini tanlab oladilar. Bunday maktablarning har biri o'zining kompozitsion tili me'yorlarini, garmoniya, polifoniya qonunlarini, ularning milliy musiqaning o'ziga xosligiga ko'ra modifikatsiyalarini o'zlashtirishdan tortib, to turli janrlarda yozilgan to'laqonli va rivojlangan asarlarni yaratishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadilar. Bu yaratilgan asarlarda milliy, o'ziga xos mavzuiylik o'z tabiatiga xos bo'lgan rivojlanishga ega bo'lib, u mantiqli va mazmunan ishonarli kompozitsion ko'rinishni olgan. Va nihoyat, to'plangan tajriba asosida milliy usulning individual ko'rinishlari shakllandi. Bu bosqichlarning hammasida mustaqil madaniyatning ixtiyoriy shakldagi dialoglari bo'lishi mumkin. Ularning qo'shilishi, sintezidan to usullarning dialogi yoki polilogigacha janrdan chetga chiqmagan holdan to oldiga qo'yilgan maqsad ta'sirida umumlashtirish va transformatsiyagacha amalga oshirilganligini ko'rish mumkin.

Vokal san'ati shakllanishining ijtimoiy tarixiy asoslari

Zamonaviy san'at shakllanishining ijtimoiy tarixiy jarayonlari XX asr musiqa san'ati rivojida tubdan burilish yasadi. Uning ob'ektiv jihatarini bunday bo'lishida tarixiy xodisalar sabab bo'ldi. Jumladan, jahon urushi va dunyoning boshqa xududlarida inqiloblarning yuzaga kelishi, odamlarning o'ta ashaddiy vaxshiylashi, insoniylikka xos bo'lmagan qonli

³ Куй безаги

⁴ Мусиқада икки чолғу асбобда бир хил куй ижро этиш, ёки икки хонанда томонидан бир хил асарни куйлаш.

va fojeali bir-biriga nisbatan munosabatlari odamlarni yovvoyilik, vaxshilik, tubanlikning tubiga uloqtirdi. Buning oqibatida dahshatdan uygʻongan odam insoniyatni ulugʻlovchi, insonni qadrlashni, kelajakka ishonchni uygʻotuvchi, qalb (ruh) va fikrning yuksalishiga davat etuvchi his tuygʻularni qoʻzgʻatuvchi musiqa sanʼatiga murojaat etishga olib keldi. Bu davr dialektik qarama-qarshiliklar, yaʼni yuksaklik va tubanlik, qahr va gʻazab, mehr va shavqat, oʻtmish va kelajak, boy va kambagʻal, xalol va xarom, borlik va yoʻqlik, mehr va qahr vahokazo musiqa sanʼatida yangi koʻrinishning asosi boʻlib qoldi va unda bugungi kunning butun drammatizmini aks ettirdi.

Avvalambor, musiqa turli xil qatlamlarga boʻlinib ketdi. Jumladan, jiddiy akademik-zamonni imkoni boricha rost va aniq aks ettirishga harakat qiluvchi, yaʼni koʻngil ochar (engil submadaniyat) ijrolar koʻpayib ketdi. Ular orasida esa professionalizmning regional chetlanishlari boʻlib, ular jiddiy janrlardagi emotsional-pozitiv boshlanishdagi boʻshliqni toʻldirib turardi.

Bilamizki, koʻpgina izlanishlarning yangi yoʻnalishlari antiromantizm bayrogʻi ostida olib borilgan. Bu holat jiddiy akademik musiqaga boʻlgan qiziqishni kamaytirib bordi. Koʻngilochar sanʼat ommaviy qiziqishni, unga nisbatan kamroq qiziqishni esa ijodning regional koʻrinishlari uygʻotdi.

Tinglovchi ongida jiddiy zamonaviy kompozitorlarning novatorlik izlanishlari oʻtgan XIX asr akademik ijodiyoti oldida beʼetiborlik holatida tinglandi. Tinglovchining estetik talablari bu izlanishlar bilan mos tushmadi va natijada krizis vaziyat yuzaga keldi. Agar asrning birinchi yarmida omma istaklaridan ozod boʻlgan mustaqillik kayfiyati ustun boʻlgan boʻlsa, oʻzlarining haq ekanliklariga boʻlgan ishonch kelajakda tan olinishiga boʻlgan umidlar bilan sugʻorildi. Asrning ikkinchi yarmidan esa musiqa ijodining boshqa tamoyillari izlana boshlandi. Yaʼni, asarning mahorat bilan ijro etgan holda uning mazmundorlik darajasini pasaytirmagan lirik harakat "tinglovchiga tomon yoʻl" izlandi. Aytish joizki, bu yoʻl yuksak haraktli faoliyat natijasida zabt etildi.

Sanʼat yangi muammolarini oʻrganishning estetik - madaniyatshunoslik yoʻnalishi

XX asr sanʼatining oʻziga xos tomoni shundaki, unda bir butun usulning asosi yoʻq. Ijod qiluvchi bir usulga asoslanib, oʻz usuli

tamoyillarini ko'ra olmaydi. Shuning uchun musiqada novotorlik yozuvining atonallik, atematizm, nomantiqlik kabi tavsiflari juda uzoq saqlanib keldi. Buning natijasida musiqiy til o'zining eski tizimini ya'ni yozuvini yangilashga bo'lgan harakati ko'rinmadi. Professional ijodiyotdagi bunday burilish o'ziga xos ko'rinishlarni namayon etgan bo'lsada, biroq uning faoliyati tashqi ko'z bilan qaraganda sezilmay turardi. Bu holat o'sha davr musiqasining falsafa va musiqiy estetikada olam va san'atni bilishning mumtoz nazariyasi o'z imkoniyatlarini tugab borayotganligini ko'rsatar edi. Romantizm mumtoz logika asarlari bilan uzilmagan holda uni yangilab, uning imkoniyatlarini ichidan kengaytirdi. Ammo XIX asrning oxiriga kelib, bu qudratli kontseptsiya yangi kontseptsiyaga yo'l bo'shatib berishga majbur bo'ldi va shunday ham bo'ldi. Buyuk burilish davri albatta yangi san'atning ko'p sonli deklaratsiyalarini keltirib chiqardi. Ular o'tmish bilan aloqalarini o'rganliklarini e'tirof etdilar. An'ana - kanon⁵ga bo'lgan munosabat teskari tomonga o'zgarib, birlamchi bo'lib, hayotiy tajriba (eksperiment) oldinga chiqdi. Bu jarayon XIX asrning oxirgi yillaridan boshlanib: simbolizm, impressionizm - ular yangi san'atning boshlovchilari edi. Xuddi shu vaqtda "san'atning ichini bo'shatishdan bosh tortish", "badiiy matndan muallifning intim muammolarini olib tashlash" kabi shiorlar oldinga chiqdi. Badiiy fikr vositasida xissiyotlarni tavsiflashning hayoliy yoki epik ko'rinishlariga murojaat qildi. Bu urinishlar istalsa va istalmasa musiqa san'tisiz borishiga shubha bor edi. Ana shunday zaminda ham folklorizm, ham neoklassitsizmning yo'nalishlari bo'lgan - neobarokko, afsona ijodiyoti, urbanizm, fovizm paydo bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda "bo'rttirish" qoidasi o'z kuchini ko'rsatdi.

Musiqiy yozuvdagi burilish musiqiy vositalar ifoda bo'yoqlarini boshqatdan ko'rib chiqish yo'lidan borardi. Agar mumtoz matn asosini kuy va garmoniya tashkil etgan bo'lsa, yangi musiqiy tilda faktura, tembr, dinamika, artikulyatsiya va agogika⁶ning roli kuchaydi. Melos⁷ bilan bog'liq bo'lmagan ritmning mustaqil funktsiyasi o'sib bordi. Bunday ko'rib

⁵ Канон – юнунча канон – қонда, нусха. Бир куйни бир неча овозда олдин-кетин қайтариладиган кўповозли мусиқа. Канонда куй бир овозда тугалланмасдан иккинчи овозда бошланади. Каноннинг кўшканон тури ҳам бор. Бунда бир йўла турли овозларда иккита куй қайтарилади.

⁶ Лотин тилидан юргизиш, эргаштириш маъноларини англатиб, мусиқа ижрочилигида бадний ниятни кўзлаб асар суръатини бир оз ўзгартириш, тезлатиш ё секинлатиш ҳақидаги билим.

⁷ Мелос – лотинчада ашула маъносини англатади.

chiqish ladogarmonik yangiliklar asosida bajarilib, avvalambor, dissonans⁹ni, bo'shatish, garmoniyaning ladlar tovushqatori 12 tonligini major - minorli markazlashgan funktsionallikdan voz kechishdan boshlandi. Mumtoz garmoniyaning qudratli tashkiliy imkoniyatlari boshqa tashkiliy faktorlarga joy bo'shatib berishga majbur bo'ldi. Bunga yozuv texnikalarini misol qilish mumkin. Bu texnikalarning turli hil bo'lishlariga qaramay, ularning kesishish nuqtalari va tekis qutlashish tizimlari sezilib turadi. Bu texnikalarning hammasida intonatsion - melodik boshlanish rolining kamayishini ta'kidlash lozim. Uning o'rniga fonizm yoki ratsional tashkilotchilik rolining o'sishi bilan to'ldirildi. Vaziyatning qiziqligi shundaki, ma'lum bir texnika tarafdorlari individuallashtirishga intilishib, ammo individual yagonalikka erisha olmadilar. Bu musiqani tashkil qilish intonatsion qatlamini ikkinchi darajaga o'tkazishdan kelib chiqdi. Butun keyingi musiqa tarixi bu vaziyatdan chiqib ketish yo'lini izlashga, musiqiy ifodaviylik bo'yoqlarini kengaytirishga olib keldi.

⁹ Созланмаган товуш.

II-BOB. VOKAL VA ZAMONAVIY MUSIQA FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Fanni o'qitishning maqsad va vazifalari

“Vokal va zamonaviy musiqa” fani Respublika oliy ta’lim muassasalarining pedagogika sohasi musiqa ta’limi yo’nalishi bo’yicha tahsil olayotgan talabalarga vokal va zamonaviy musiqa (estrada xonandaligi) san’ati ijrochiligi bo’yicha nazariy hamda amaliy bilimlarni beruvchi fanlardan biri sarasiga kiradi. Talaba yoshlarni yuqori malakali mutaxassis sifatida tarbiyalashda vokal ijrochiligi hamda zamonaviy musiqa – estrada xonandaligi bo’yicha nazariy bilimlarning o’rni kattadir. Mazkur bilimlar musiqa ta’limi yo’nalishi talabalarining kelajakda maktabgacha ta’lim muassasalari, umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’quvchilarini vokal hamda estrada xonandaligi bo’yicha ijrochilik mahoratini oshirishga xizmat qiladi.

Fanning asosiy maqsadi - talaba yoshlarni vokal va zamonaviy musiqa fanining nazariy bilimlarini puxta egallashlari, vokal va zamonaviy estrada qo’shiqlarini ayta olish ko’nikmasini shakllantirish, vokal san’ati vositasida bo’ljak musiqa o’qituvchilarining estetik va badiiy didini tarbiyalash, professional uslubda kuylash tajriba va malakalarini rivojlantirishdan iboratdir. Alohida e’tibor tovush apparatining texnik rivojiga, artistik mahoratini rivojlantirish va yuqori badiiy saviyada tarbiyalashga qaratilishi kerak. Mazkur fan yuzasidan talaba dunyoqarashini shakllantirish va keng fikrlash ko’nikmasini egallash, ya’ni insoniyat madaniyati tarixi, rivojlanish pog’onalari xususan yangi paydo bo’lgan kompyuterlar tizimidagi jahon musiqiy dasturlari yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishi yuzasidan ham etarlicha bilimlarni o’zlashtirishlari shart.

Fanning asosiy vazifalari qatorida dars jarayonida talabalarga ta’lim va tarbiya berish, ularni dunyo standartiga to’la javob beradigan chuqur bilimli, yuqori malakali mutaxassis qilib tayyorlash, vokal va estrada xonandaligi ijrochiligining tizimlilik, izchillik, oddiydan murakkabga qarab rivojlaniishi, ijrochilik mahoratini egallashida yakka tartibda yondashish kabi qator didaktik tomonlari bilan tanishtirishdan iborat bo’ladi.

Vokal va zamonaviy musiqa xonandaligida tovush yo'llarining tuzilishi va harakatlanishi xususiyatlarini, vokal va estrada xonandaligi to'g'risidagi asosiy tushunchalarni, ovoz hosil qilish va uning turlarini, xonandalik nafasi, artikulyatsiya, intonatsiya va dinamik belgilarni bilishi, nafasni qovurg'aning pastidan, asosan qorindan shovqinsiz olish va uni tejimli sarflash, barcha registrlarda yuqori holatda ovoz hosil qilib kuylay olish, sof va toza kuylash, so'zlarni orfoepiya⁹ qoidalariga muvofiq talaffuz qilib kuylash, turlicha ovoz hujumlari bilan kuylay olish, legato va stakkatoda kuylash, o'zbek va Evropa vokal va estrada asarlarining klassik va zamonaviy uslubiy yo'nalishlarining manyorali ijrosi, yakka va turli guruxlar bilan mustaqil ijodiy ishlash va kontsert faoliyatini yurgizish, mikrofonni erkin ishlatish qoidalarini bilish va unga rioya qilish, xonanda ovozining registrlari va badiiy texnik imkoniyatlarini, ovozni ishlatish va qo'yish mashqlarini, o'quvchi bilan asar ustida ishlab, sahnaga chiqishga tayyorlash kabi ko'nikmalarni egallashi talab etiladi.

Shuningdek, mazkur fan asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining mutaxassislik va vokal xonandaligining siru-asrorlarini chuqur bilish va yuqori professional uslubda kuylay olish, musiqa asbobi jo'rligida hamda unison yoki ko'p ovozli ansambllar jo'rligida yoki yakkaxonanda sifatida kuylash, ovoz va musiqa asbobi uchun yozilgan asarlarni ifoda etish shtrixlari, uslub (stil) va karakteri nuqtai nazardan tahlil qilish, boshlang'ich va o'rta ta'lim tizimida pedagogik faoliyat yuritish, o'quvchi ovozini rivojlantirish, ovozda nuqsonlarni bartaraf etish, o'quvchiga dastur tanlash, dastur ustida ishlash, vokal xonandaligi va estrada qo'shiqchiligi tarixi va rivoji bosqichlari, jo'rnavoz va fonogramma minus (blyus) bilan ishlash yo'llari, estrada musiqasining klassik va zamonaviy uslubiy yo'nalishlarini, vokal ovoz registrlari, xajmini va ovoz imkoniyatlarini, vokal nota matnlarini o'qish va tahlil qilishni, xonandalik pedagogikasining asosiy tushunchalari, xonandalik ovozlari klassifikatsiyasi, musiqiy qobiliyat psixologiyasi, tovush apparatining tuzilishi va ishlashi, o'zbek va dunyodagi mashhur vokal va estrada xonandalarining ijro uslublarini bilish hamda ularda bemalol kuylay olish kabi bilimlarni o'rganadi.

⁹Vokal ijrochiligi juda tuzilgan talaffuz qilish qoidalarini.

Kursning asosiy mazmuni ovoz hosil qilish malakalari va fiziologiyasini o'rganish hamda uni amalda qo'llay olish, shuningdek, vokal va estrada xonandaligi malakalarini egallashdan iborat.

Qo'shiq – aytim tushunchasi

O'zbek halqi tarixi va uning musiqiy ijrochiligi o'zi kabi tarixan boy va rangbarangdir. Aholining ming yillar mobaynida ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini va mavqei, xursandchiligi, dardu-alamini qo'shiq va kuy orqali namoyish qilishga harakat qilgan. Nazarimizda uni oqilona udalagan. Musiqaga shu jumladan, qo'shiq aytishga muxabbat xalqning qoni orqali butun vujudiga ong-shuuriga, yuragiga singib ketgan.

Inson qadimdan atrof muhitda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirgan va bildirib kelmoqda. Bu munosabatlar, avvalo, turli xatti-harakatlar, ovozlari, ehtiroslar, his-tuyg'ular, yoki biror musiqa asari vositasida amalga oshib kelmoqda. Keyinchalik his-tuyg'ularni so'zlar, so'z yig'indisi, raqslar ifodalagan. Yana keyinroq odamlar o'zlaricha dunyoning, tabiatning, hayvonlar, o'simliklar, tog'lar, suvlarning paydo bo'lishini izohlovchi to'qima hikoyalar o'ylab topganlar. Yigitlar, qizlar muhabbat qo'shiqlarini to'qiganlar. Qabila-urug'ning mard va jasur yigitlari haqida, ularning g'aroyib qahramonliklari haqida afsona va rivoyatlar paydo bo'lgan. Bularning hammasi hali yozuv madaniyati vujudga kelmasdan oldin jamoa-jamoa bo'lib yashayotgan aholi o'rtasida shuhrat topgan.

Ma'lumki, musiqa san'ati estetik idrokning bitmas tuganmas manbaidir. Inson qalbi va yuragini zabt etuvchi maftunkor dunyodir. Inson doimo go'zallikka intilib, uni sevib, undan zavq-shavq olib yashaydi. Shuningdek, ushbu kundalik hayotda shu go'zallik qoidalariga amal qiladi va undan oqilona foydalanadilar. Bu jarayon refleksiv hayot tarzini yuzaga kelishida u yoki bu ma'noda o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

Qo'shiqlar halqning ijtimoiy hayotining hamma tomonlari bilan bog'langan bo'lib, ular muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan, insoniyat tafakkuri darajasiga qarab turmushni o'ziga xos obrazlarda badiiy jihatdan aks ettirgan noyob san'atdir. Halqimizning eng yaxshi ko'rgan g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak an'anaviy qo'shiqlarida aholining turmushi, tirikchiligi, ko'nglidagi orzu-armonlari, dard alami, shod xurramligi kelajakka ishonchi, ijtimoiy turmush tarzi bilan bog'liq

jarayonlar, vositalar, hayot shakli va mazmuni ifodalangan. Shuningdek, zo'ravonlik, erkinsizlik, adolasizlikka qarshi kurashishning qudratli ovozi eshitilib turgan. Qo'shiqlarning muzmuni voqealarning lirik g'oyasini badiiy o'zlashtirib, ya'ni yuz bergan xodisa va voqealarga munosabat, his-tuyg'u va kayfiyat orqali namayon bo'lgan.

San'atning xaqiqiy mazmuni inson va uning hayotini muayyan davr ijtimoiy axloq normalari bilan belgilanadi, go'zallik esa his orqali kishiga zavq beradi. O'zbek halq og'zaki badiiy ijodida asosiy janrlardan hisoblangan qo'shiqlar xalq turmushini, axloq normalarini o'ziga xos san'at orqali aks ettiradi. Odamlarning ichki dunyosi, o'y tushunchasi, umid orzu va kelajakka bo'lgan ishonchi ham o'ziga xoslik bilan ifodalanadi.

Musiqa ta'limining katta e'tibor bergan, Sharq musiqa dunyosida birinchi musiqashunos olim, musiqa nazariyasining asoschisi, O'rta Osiyolik mashhur musiqa nazariyotchi va amaliyotchi Al-Farobiy yosh avlodni tarbiyalash o'qitish masalalariga ko'plab ilmiy va amaliy g'oyalar bildiradi. Taniqli olim, faylasuf, musiqashunos Jomiyning "Risolai dar ilmi musiqa" nomli kitobida kompazitsiya, lad, ritm nisbatlari haqida yozgan. O'zbek shoiri Alisher Navoiy ham musiqa san'ati sohasida nixoyatda katta bilimga ega bo'lgan bo'lib, uning musiqaviy estetik qarashlari "Sabbai-Sayyor",¹⁰ "Maxbub-ul qulub", "Xamsa" kabi asarlarida aks etgan.

Barcha xalqlar qatori o'zbek xalqi ham qadimdan o'zining boy milliy ma'naviy qadriyatlarini, urf-odatlarini va an'alariga ega bo'lib kelgan tarixan juda o'tmishga borib taqaladigan boy musiqiy merosga ega. O'zbek xalqining turmush tarzi, ruhiyati va salohiyatini, xususiyatlarini belgilovchi uning musiqasi, kuy va qo'shiqlaridir. Bu milliy musiqiy meros nihoyatda boy va ko'p janrlidir.

Musiqiy janr va uslub tushunchalari.

Turli hil davrlarda janr¹¹ musiqa ma'nosini tushunish uchun yo'l boshlovchi bo'lib, tinglanayotgan asarni to'g'ri tushunishni ta'minlagan. Buriqish, klassitsizm qonuniyatlarining inqirozi davrida muallif tomonidan oldiga qo'ygan vazifalarini aniqlashtirishi ayniqsa, o'ta

¹⁰K.Xoshimov, S.Nishonov "Pedagogika tarixi"

¹¹ Жанр - тип, услуб.

muhim qadrli bo'lgan. XX asr musiqiy asarlarida janrlarning o'zaro aloqasi ahamiyatli ravishda kengaydi.

Fikrlashning klassik - romantik tizimidan voz kechish bu yo'nalishlarning janrli kontseptsiyasidan ham voz kechishga olib keldi. Janr hosil bo'lishda aralash janr asosiy tamoyilga aylandi. Bunda turli janrlarning aralashishi har xil bo'lib, ularning hosil bo'lishi bir - biridan ancha farq qilardi. Aniq janr belgilaridan voz kechish sezilarli bo'lib, ularni janrli neytral nomlanishlar bilan almashtirildi, Masalan: "musiqa"ga qo'shimcha to'ldirishlar va aniqlashlar kiritildi - " ... uchun musiqa", "aza uchun musiqa". Xuddi shu kabi improvizatsiya, kadentsiya tushunchalarini ham keltirish mumkin. Ularning hammasi dasturli bo'lmagan holda asarning eksperimentli xarakterini ta'kidlaydi. Bu erda tajriba-sinov ijrochilar guruhiga, ma'lum bir usulga yangi nazar bilan qarashda, birlashtirib bo'lmaydigan narsalarni birlashtirishda namoyon bo'ldi.

Kontsert-simfoniya, simfoniya-maqom, violonchel, bayan va kamer orkestr uchun partita, simfonik orkestr, 4 ta elektro gitara va djaz - grappa uchun kontsert kabi janrlar aralashmalari - odatda turli g'oyalar, maddaniyatning turli hil qatlamlarining to'qnashuvi sifatida namoyon bo'ldi. Ba'zi bir hollarda ular janrlar sintezini yaratishadi: simfoniya-memorial, aralashma va bu garmonik natijaga olib keladi.

XIX asrda janrlilik asar matnida o'qish yoki timsolni umumlashtirish sifatida ishlatilgan bo'lsa XX asrga kelib, u yangi vazifalarni o'zlashtirdi, ya'ni, janrni soddalashtirish, ma'noni butunlay teskari ravishda o'zgartirish kabi tarixiy xotira janri ham paydo bo'lib, ko'p xollarda u ko'p qatlamli, janrning uzoq tarixiy o'tmishini ochib beruvchi ko'rinishini namoyon qildi.

Xonandalik asoslari.

O'zbek musiqa san'ati ijrochiligida xonandalik ustozdan-shogirdga an'ana asosida o'tib, rivojlanib, turli sharoitlarga qaramay, goh rivojlanib, gohida ma'lum qarama-qarshiliklarga uchrab bizgacha etib keldi. O'zbek musiqiy merosi qatlamiga mansub bo'lgan xalq musiqasidagi folklor aytimlari yoki og'izaki an'ana dagi kasbiy musiqa – maqomlar singari XIX asrning boshlaridan kurtak ochib rivojlanib kelgan vokal va zamonaviy musiqa ijrochiligining xalq ijodiyotida ham o'zining asosiy mavqei borligini yana bir bor ta'kidlab o'tish joiz. Yuqorida tilga olinayotgan har bir yo'nalish o'zining shakl va ijrochilik nuqtai nazaridan o'z uslubi, qonun-qoidalari va shaklu-shamoillariga egaligi xususida musiqashunos olimlar o'zlarining qator tadqiqotlarida purma'no fikrlarni keltirib o'tganlar. Ular orasida I.Rajabov, F.Karomatov, T.G'ofurbekov, O.Ibroximov, R.Yunusov, N.Toshtemirov, O.Bekov, S.Bekmatov, O.Toshmatova, D.Mullajonov, Q.Panjiev, G'.Xudoevlarning nomlarini tilga olish joizdir. Ular o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida tarixiy tajribalar asosida shakllangan va eng mukammal an'analarni o'zida mujassam etgan xonandalik yo'nalishining ijrochilik uslubi, musiqiy shakli va aytimning xalqchilligi, milliy ranglar bilan bezatilgan ohanglarni turi va xususiyatlari xususida qimmatli ma'lumotlar bergan. Xonandalik ijrochiligi juda qadimgi davrlardan o'zbek xalqining ijtimoiy hayotida tutgan o'rni va mehnat faoliyatini ko'rsatibgina qolmasdan balki, eng go'zal urf-odatlarini, an'ana, qadriyat va milliy ruxiyatini yuzaga chiqarib, xalqimizning boy ma'naviyati va madaniyatini dunyo xalqlari oldida asl holatida saqlagan holda o'ziga xosligini ko'rsatib kelmoqda.

Xonandalik san'ati va uning aytim uslublari yillar davomida shakllanib, rivojlanib, turli janr xususiyatlarini ko'rsatib kelmoqda. Jumladan, ashula¹² ijrochiligi san'ati aholi orasida keng ommalashdi. Ayniqsa, ularning janr jihatidan keng qamrovliligi, ijro uslublarning kengligi, she'riy matnlari asosan mumtoz adabiyotdagi aruz vaznda

¹² Ashula – keng tarqalgan vokal musiqa janri va shakli bo'lib, unda she'riy va musikiy obrazlar bir-biriga uyg'unlashgan holda gavdalanaadi. Ashula – oddatda yarim avj, urta avj va avj kimlaridan iborat bo'lib, she'riy matni mumtoz adabiyot vakillarining aruz vaznida ijod qilgan asarlaridan iborat bo'ladi. Xalq ijodiyotida tuxkuz va undan yuqori bo'lgan barmoq vaznida she'rlar ham ashula qilib kuylangan.

bitilgan asarlardan iborat bo'lishi bilan hamda evropa vokal san'atiga nisbatan bir oz murakkabligi bilan ham ahamiyatlidir. Musiqashunos olim S.Bekmatovning ta'kidlashicha shaxsiy hamda mahalliy unsurlar bilan tavsiflanuvchi ijro uslublari ega ijro maktablari yuzaga keldi. Andijon, Xorazm, Marg'ilon, Qo'qon xofizlik maktablari shular jumlasidan bo'lsada, o'z davrining mohir ijrochilari Xamroqul Qori, Xojixon Boltaev, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Mamatbuva Sattorov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Fattoxxon Mamadaliev, Munojot Yo'lchieva, Matluba Dadaboeva kabi shaxsiy ijro uslublari yuzaga kelganligi, keyingi ijrochilik maktablarini shakllanishida mustahkam poydevor sifatida xizmat qildi.

Xonandalik san'atida ijrochilik uslubi hamda amaliy unsurlar alohida o'rin egallaydi. Shunay unsurlardan biri va birlamchi jarayon bu – odam ovozidir. Kishi ovoz ijrochilik tajribalarida eng asosiy unsur hisoblanishini ko'rsatib o'tganlar. Albatta, bu o'rinda ijrochi mahorati, nafas, ovozni boshqara olish qobiliyati, so'z talaffuzi, kuy-ohang va ijodiy jarayon mutanosibligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu xususiyatlarni hamda ijrochilik mahoratini quyidagi bo'limlarga ajratgan holda o'rganish tavsiya etiladi. Jumladan:

- ijrochilik mahorati;
- ovoz imkoniyatlari va ovozni boshqarish;
- nafasni boshqarish;
- so'z hamda so'zlarni to'g'ri va ravon talaffuz qilish;
- so'z va oxang mutanosibligi;
- ritm masalalari;
- ijro madaniyati;
- sahna majaniyati;
- ijrochi odobi va etikasi;
- ijroda texnik mahoratni yuksakligi;
- ijroda ruhiy tayyorgarlik.

O'zbek xonandalik ijodiyoti tarkibidan shakllangan va bugungi kunda keng rivojlangan yangi yo'nalish sifatida zamonaviy estrada xonandaligini ham aytib o'tish joiz. U bugungi kunda eng yosh aytim janri sifatida o'zbek musiqashunoslik ilmida mavjud bo'lgan to'rtta asosiy lokal mahalliy uslubda ijro etilib, o'zining keng qamrovliligi hamda ijro uslubini o'zgartirib, rivojlanib kelmoqda. Unda asosan barmoq vazndagi she'r tanlanib, deyarli avjsiz pardalarda kuylanmoqda. Estrada xonandaligida

zamonaviy musiqiy cholg'ular asosiy vosita sifatida qaralib, elektron cholg'u asboblarda bir varakayida berilayotgan ritm etkachilik qilayotganligi ham uning aholi orasida birmuncha ommalashganligidan ham ko'rish mumkin.

Tarixdan ma'lumki, er yuzida mavjud xalqlarning tarixiy shakllanish jarayonida aholining eng go'zal fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan va qator an'analarni, inson o'zi uchun bo'lgan qadriyatlarini meros sifatida avaylab avlodan-avlodga etkazib kelganlar. Ayniqsa, ijtimoiy hayotidagi muhim voqea va xodisalarni, tadbirlarni, chunonchi, kundalik turmush bilan bog'lik bo'lgan urf-odat, qadriyat, udumlar va marosimlarni bayram sifatida o'tkazib kelishi yuqoridagi fikrimizning isboti sifatida e'tirof etish mumkin. Odamlar o'zlari yaratgan ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy, tarixiy voqealar ta'siri ostida tili, ma'naviyati, madaniyati ruhiyati, fazilatlarini bilan bog'lik xususiyatlarining shakllanishi, rivojlanishi va ular asosida yangidan-yangi oqim, yo'nalishlarning yuzaga kelishi asnosida jamiyatda o'z o'rnini va mavqeiini shallantirib, mustakamlab keldi. Ular hayotining turli tarmoqlarida muayyan shart-sharoitlar, voqeylik, ma'naviy ehtiyojlarni to'ldirish bilan bog'liq urf-odat, an'ana, marosim, tadbir va amallar bilan badiiy bezatildi. Avlodlarning asrlar osha u yoki bu tadbirga amal qilib kelishlari jarayonida ularga bo'lgan ehtiyoj uzilib qolmadi va aksincha, marosimlarni sharoit taqozo etgan vaqtda o'tkazib turishi va muntazam davom ettirish odamlarning hayotida o'chmas iz qoldirdi.

Musiqqa san'ati ijrochiligida ovoz, cholg'uning bir-biriga hamohangligi o'ta muhimdir. Bevosita aytim jarayoni ijrochi tomonidan yakka, juft, guruhli yoki ommaviy tarkibda amalga oshiriladi. Aholi orasida ijrochi xonandalarni qo'shiqchi, laparchi, yallachi, termachi, baxshi, baxshi-oqin, dostonchi, navonoz, mug'anniy, xonanda, ashulachi, aytimchi, xalifa, shoir, nasrchi va hofiz kabi nomlar bilan atab kelingan. Yuqorida keltirilgan har bir atamada musiqiy janr xususiyati to'la ifodasini topadigan bo'lsa, "hofiz" ham bu o'rinda qator tarkibiy xususiyatlari bilan bog'liq holda o'zining ayrim jihatlarni namoyon etgan. "Hofiz" - arabcha "xifz" so'zidan olingan bo'lib, aslida "asrovchi", "yodda saqlovchi" ma'nolarini anglatadi. Shu bois bo'lsa kerak o'tmishda, ijro talqini bilan bog'lik kasb egalari hamda amallarida xifz, ya'ni esda saqlash muhim hisoblangan va talqin etish jihatlarni o'zida mujassam etganlari ushbu nom bilan atalib kelingan.

XX asrning 30 yillariga kelib mumtoz musiqa merosi va xalq yo'llariga mansub yirik shakldagi ashula ijrochilari - mohir xonanda va mashhur ashulachilarni hofiz deb yuritish rasman keng ommalashdi. O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan 1939 yili "Xalq hofizi" faxriy unvon ta'sis etildi. Unga birinchilar qatorida mashhur xonandalar Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov va Ortiqxo'ja Imomxo'jaevlar sazovor bo'ldilar. O'zbekiston Respublikasi o'zining Davlat mustaqilligini qo'lgan olgan dastlabki kunlardan, ya'ni, 1991 yili mohir ashulachilarga berilgan bu oliy unvon (qariyb 50 yillik tanaffusdan so'ng) qayta tiklandi. Ochilxon Otaxonov, Odiljon Yusupov, Fattoxhon Mamadaliev va Xasan Rajabiyar hamda 1993 yili Muxammadjon Karimov, Ruzmat Jumaniyozov, Orifxon Xotamov va O'lmas Saidjonov, Quvondik Iskanadarov, Eson Lutfullaev, Ismoiljon va Isroiljon Vaxobovlar, Maxmudjon Yo'ldoshev, Maxmudjon Tojiboev, Beknazar Do'stmurodov, Farxod Davlatovlar sazovor bo'ldilar¹³.

Ijrochilik mahorati o'zining bir qator ichki va tashqi xususiyatlari bilan amaliyotda muhim ahamiyat kasb etib keldi. **Iste'dod, bilim, mahorat, mukammal ovoz, xonandalikda talaffuz, to'g'ri va ravon so'z talaffuzi, badihaguylik mahorati, o'z ustida muntazam va uzluksiz ishlash ularning barchasi ijodkorning oldiga turgan muhim va doimiy amal qilib turish xususiyatlaridandir.** Xonandalik ijrochiligi amaliyotida ana shunday xususiyatlarni o'zida dasturi amal qilib olgan ijrochilikda endi tajriba orttirib kelayotgan san'atkor yoshi o'tgan sayin ovoz imkoniyatlariga ega bo'lib boradi.

Badihago'ylik - maxsus tayyorgarliksiz bir zumda yaratilgan she'r (musiqa yoki qo'shiq) yoki voqea, xodisa munosabati bilan to'satdan aytilgan yoki biror kishi tomonidan ijro qilinayotgan asarga qo'shilishib aytilgan musiqiy asardir. Musiqa ijodiyotida maxsus badihago'ylikka asoslangan aytishuv, lapar kabi janrlar katta ashula va baxshilar san'atiga xos bo'lgan namunalar mavjud. Mumtoz musiqa namunalari ijrochiligida esa, badihago'ylik o'ziga xos ko'rinishda shakllanib, ijro jarayonidagi talqin mezoni bilan bevosita bog'liq holda amalga oshiriladi. Xonanda yoki sozandaning ijro vaqti ham vaziyat taqozosi doirasida kuy yoki ashulaga ijodiy yondoshish va namudlar kutishi bilan amalga oshirilgan. Bu amalda saboq badiiy va musiqiy meros an'analari negizidagi teran bilim, amaliy

¹³ С.Бекматов. Хонадалиқ санъати. Ўқув-услубий қўлланма. 2007 й. 135 б.

jarayon talqinidagi mahorati va ijro etayotgan musiqiy namunaga nisbatan ijodiy yondoshishi xonandaning asosiy mezonini xisoblanadi.

O'zbek milliy musiqa san'ati o'zining qadimiy shakllanishi jarayonidan hozirgi davrimizgacha insoniyatning ijtimoiy hayoti bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. Turli shart-sharoitlarga asoslangan musiqiy namunalar ijod etilgan, o'zining ravnaqi yo'lida janr xususiyatlari kengayib, yirik-yirik asarlar vujudga kelishiga zamin yaratgan. Hayot manbai bo'lmish ijod, uning tizimida tarkib topgan ijodiyot o'tmish allomalari tomonidan ma'lum darajada yoritilgan. Musiqiy merosimizning mukammal va murakkab jihatlari, boy imkoniyatlari musiqa san'atining insoniyat hayotida qanchalik ahamiyat kasb etganligidan dalolat beradi.

Vokal xonandasi yoki estrada ijrochisi bo'lishidan qat'iy nazar, uni ro'yobga chiqarishda sozandalarning o'rni va ahamiyati juda muhim hisoblanadi. Xonandaning birinchi tinglovchisi va tanqidchisi albatta sozanda bo'ladi. Vokal xonandasining yoki estrada ijrochisining to'g'ri yo'lga boshlashda mohir sozandalarning o'rni beqiyos. Bugungi kunda o'zbek milliy musiqa ijrochiligida rang-barang musiqa cholg'ulariga ega. Ularda jumlasiga, doyra, dutor, rubob, tanbur, tor, g'ijjak, chang, qonun, akardion va boshqalarni tilga olish lozim. Biroq, keyingi davrlarda zamonaviy elektron musiqa asboblari ham o'z o'rni va mavqegini egalladi.

Xonandaning ovoz imkoniyatlari va uning gigienik qoidalari

Xonandaning mukammal ijroga erishishi, uning bir qator fiziologik va jismoniy kuchiga bog'liq. **Xonandaning ovoz imkoniyatlarining** o'zagini tashkil etuvchi jarayon bu tovushdir. Tovush fizik xodisadir. Tovush manbai aslida birorta jism (masalan, simli tor)ning tebranish harakatlari chastotasiga bog'liqdir. Bunday harakatlar natijasida, havoda to'lqinsimon tebranishlar, ya'ni *tovush to'qinlari* yuzaga keladi. Ular esa eshitish organiga ta'sir qilib, eshitish nerv tolalari orqali bosh miyaga o'tadi va tovush sezgisini vujudga keltiradi.

Tabiatda odam qulog'iga chalinadigan tovushlar cheksizdir. Ular *shovqinli* - taqillagan, shitirlagan, g'ichirlagan kabi tabiiy tovushlar va *musiqiy* - kuylayotgan odam ovozi, yangrayotgan cholg'u asbobning sadolari yoki ayniqsa XX asrning ikkinchi yarmidan keyin taraqqiy etgan elektron musiqiy cholg'ular kabi sun'iy tovushlarga ajratiladi. *Musiqiy*

tovushlar musiqa san'atining asosiy vositasi bo'lib, atrofda vokelikni aks ettirishda xizmat qiladi. Ular musiqa madaniyatining ko'p asrli taraqqiyot jarayonida saralab olinib, muayyan tizimga uyushtiriladi. Musiqiy ifodalilik elementlarining negizi musiqiy tovush o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlar tebranilayotgan jismning tebranish tezligi, tebranish kengligi, tebranish davomiyligi va tarkibiy qismlari son va sifatidan kelib chiqadi.

Tebranish tezligiga tovushning *balandligiga* bog'liq. Tebranish tezligi qancha katta bo'lsa, shuncha tovush balandligi yuqoriroq, va aksincha, tebranish tezligi qancha kichik bo'lsa, shuncha tovush balandligi pastroq bo'ladi. Shuning uchun, tovushlar ikki xil guruhga ajratiladi:

- 1) balandligi aniq belgilangan tovushlar - *musiqiy* tovushlar;
- 2) noaniq balandlikdagi tovushlar - *shovqinli* tovushlar.

Tebranish harakatining kuch-quvvati tebranish kengligi (amplituda)da ifodalanadi va tovush *qattiqligini* (forte–piano jarangini) ta'minlaydi. Tebranishlar amplitudasi qancha keng bo'lsa, shuncha tovush qattiq bo'ladi. Tebranishning davom etish muddati tovushning *cho'zimiga* bog'liqdir. Tebranishlar amplitudasi qancha keng bo'lsa, shuncha tovush yangrashi uzoq vaqt davom etadi. Tovush manbai tebranishlarining tarkibi deganda quyidagini tushunish lozim. Tovush manbai bir vaqtning o'zida nafaqat butunligicha, balki bo'limlari bo'yicha ham tebranadi. Uning butunligicha tebranishi asosiy tebranish hisoblanib, eng yaxshi eshitaladigan tovushni xosil qiladi. Bu tovush asosiy ton deb ataladi. Har bir bo'lim (jismning umumiy uzunligidan teng yarimi, uch qismidan biri, to'rt dan biri, beshdan biri va o.k)ning tebranish tezligi o'z uzunligiga mos tovushni yaratadi. Bunday qo'shimcha tovushlar asosiy tondan ko'ra ikki, uch marta balandroq eshitaladi. Chunki, tovush manbaining uzunligi qancha qisqa bo'lsa, uning tebranish tezligi shuncha oshadi va undan xosil bo'lgan tovush balandligi shuncha yuqorilashadi. Ushbu qo'shimcha, tarkibiy tonlar *oberton* yoki garmoniklar deb ataladi.



Tovush tarkibiga kirgan obertonlar tovushning rang-barangligini, ya'ni *tembr* xususiyatini vujudga keltiradi. Tembr tovushning individual sifatini, boshqa tovushlarga o'xshamasligini ta'kidlaydi.

Musiqiy tovushlarni ma'no va mazmunli, his-tuyg'u va hayajon asosida mukammal ijro etishga inson ovozi qodirdir. Xonanda ovozida tovush kuchi, balandligi, qattiqligi va barchasini uyg'unligida hosil bo'ladigan tembri mavjud. Ovozning barcha tarkibiy imkoniyatlari, jihatlari, ohang, nola va qochirimlaridan keng foydalanib, tinglovchi qalbiga ta'sir eta olish mumkin bo'lgan shaxs bu vokal xonandasi hisoblanadi. Bu ovozga erishish uchun inson musiqiy ma'lumotlarni mukammal bilishi, o'z ovozi ustida tinimsiz ishlashi, tabiiy iste'dodini rivojlantirishi, ustozlaridan doimiy saboq olishi, mashq va tajriba almashishi, ovozni ehtiyot qilishi va undan oqilona foydalanishi talab etiladi.

Dunyoning barcha xalqlari tomonidan vokal xonandaligi bo'yicha etirof etilgan ovoz turlari mavjud va ular tasnif (klassifikatsiya) qilingan. Juda qamimdan o'zbek xonandaligi san'ati amaliyotida ovoz turlari va uning tasnifi uchraydi. Aholi tomonidan xalq tilida ular xonandaning ovoz imkoniyati va ijro sifatlaridan kelib chiqib turlicha nomlanib kelingan. Masalan: "Tik ovoz", "Dovudiy ovoz", "Kuchli ovoz", "Xasta ovoz", "Manqa ovoz", "Bo'g'iq ovoz", "G'alati ovoz", "shovqinli ovoz", "Qichqiriq ovoz", "Baqiroq ovoz", "Mungli ovoz", "Dardli ovoz", "Qo'ng'iroq ovoz", "Yoqimli ovoz" va xokazo.

Xonandaning ovozi faqat uning eshinishi bilan emas, balki ijro diapozoni, ovozning ohangdorligi, talafuzning to'g'riligi, ritmga asoslanganligi, eshitgan kishiga xush yoqishi, aytimning mazmun va mohiyatini to'l o'zida namoyon qilishi, jarangi, yuqori diapazonlarda kuylay olishi bilan harakterlanadi. Ovoz past, baland bo'lishi nuqtai

nazardan past va yuqori registrlarga bo'linadi. Odatda, registr tushunchasi ovoz diapozonining bir qismini tashkil etadi.

An'anaviy xonandalik ijrochiligida xonandalarning ovozlarni ishlatish texnikasiga ko'ra musiqashunos olimlar 3 turga ajratadi. Ya'ni, "Binnigi" (dimoq), "Guligi" (tomoq) va "Ishkami" (korin)¹⁴ va har bir usulga alohida-alohida ilmiy-nazariy ta'rif berilgan. Ma'lumki, xonandalikda aytim yo'li (usuli) ovoz, nafas va ovoz chiqarish apparatlarining bir-biriga uzviy bog'likligida hamda ularni o'zaro uyg'unligida ishlatish natijasida yuzaga keladi.

Binnigi - sun'iy ijro uslubi bo'lib, ovozlarning qo'shilib ketishi va asosan ovoz sadolanishi burunga qarab yo'naltirilgan bo'ladi. Bu uslub xonandalari kam uchraydi. Chunki, bu kabi ijrochilar tinglovchilar tomonidan kam qabul qilinadi.

Guligi - O'zbekistonning barcha vohalarida keng tarqalgan aytim uslubi bo'lib, ijro jarayonida xonanda tomog'iga kuch berib, qiyinchilik bilan talqin etishi natijada so'zlar noaniq ifoda etishi, ovozni kuchaytirishi, bezashi kabi sun'iy kuylash jihatlarini namoyon etadi.

Ishkami - O'rta Osiyo xalqlari ashulachilik ijodiyotida keng tarqalgan va yuqori baholanadigan eng yoqimli va sifatli ijro uslubidir. Bu toifa ijrochilari chuqur nafas, kuchli tembr, keng diapozonga ega bo'lgan, aytimning o'rta avj va avj bo'limlarni yuqori mahorat bilan ayta oladigan, aytim matnini tushunarli va engil ijro eta oladigan ovoz sohiblaridir.

Butun dunyo xalqlari vokal san'ati ijrochiligida bo'lgani kabi, o'zbek xonandalik san'atida ham ovozni ishlatish texnikasida sun'iy ovoz hosil qilish amaliyoti "faltset" mavjud va ular xonandalik ijrochiligida ko'p qo'llaniladi. Faltset ongli ravishda sun'iy tarannum etiladigan sohta ovozdir. Biroq, shunday bo'lsada ushbu soxta ovozni asl ovoz bilan uyg'unlashib ketgan ko'rinishlari ham amaliyotda uchraydi. O'zbek mumtoz xonandaligida faltset turli ko'rinishlarda foydalanishlari kuzatiladi. Yana ham ochiqroq gapiradigan bo'lsak, faltset o'zbek xonandaligiga xos bo'lmagan ijro uslubi, bu uslub o'zbek mutaxassislari va tinglovchilari tomonidan qabul qilinmagan.

Faltset - odatda, xonandaning tabiiy ovoz imkoniyatlaridan kelib chiqaruvchi sun'iy ovozdir. Bu usul G'arb musiqa madaniyatida, vokal

xonandaligi ijrochiligida keng va ma'lum tartibda qo'llaniladi. Evropa vokal xonandaligi ijrochiligida asarning ma'lum qismida qo'llaniladigan bu usul O'zbekiston vohalari, ayniqsa, Xorazm va Farg'ona-Toshkent mahalliy uslubidagi an'anaviy xonandalik ijodiyotida keng uchrashini kuzatamiz. Ijro jarayonida faltset turli shakllarda namoyon bo'ladi. Odatda, ko'pchilik xonandalar qisman bu usulga murojaat etib, asarning avj qismlarini faltset usulidan foydalangan holda ijro etadilar¹⁵. O'zbek musiqa ijrochiligida, aynan ustozona musiqa namunalari (maqomlar)ni ijro etish amaliyotida "faltset" usulidan keng foydalaniladi.

Ayrim xonandalar ashulaning avj qismlarini, eng yuqori pardalarni tabiiy ovozda ijro eta olmaydilar va ana shunday hollarda faltset ovozdan foydalanadilar. Faltset ijro usulini qo'llashda xonanda katta tajriba asosida mohirlik bilan tabiiy ovoz o'rniga sun'iy ovozni qo'llash kerakki, tinglovchi ikkalasi orasidagi tovushning baland yoki pastligidagi farqni sezmasligi lozim.

Xonandaning ovoz gigienasi.

Ovoz har bir jonli mavjudotda mavjud, lekin xonandalik yoki xofizlikka xos ovoz, tabiatan Alloh inom etgan ovoz hisoblanadi. Shu bois, uni ehtiyot qilish, muntazam tarzda parvarishlab borish, undan aql va idrok bilan foydalanish tavsiya etiladi. Xonanda ovozining salomatligi va uning xastalikka chalinmasligi ovoz gigienasiga bog'liq. Jumladan, avvalo, xonanda ovoz pardalarini xastalanishidan hamda qattiq urinib qolishidan saqlashi, tomog'ini kuchlantirib qattiq gapirishdan, baqirib kuylashdan, ovoz imkoniyatlari asosida qulay pardalarda kuylash, tessitura - majburan ko'p vaqt davomida kuylash, avj pardalarda beto'xtov ijro etish va boshqa shu kabi xolatlar ovoz xastaligiga sabab bo'lishi mumkin. Buni oldini olish uchun xonanda, doimo ovoz sozlash mashqlarini tartib bilan olib borishi, past va yuqori ovoz tessituralarida ko'p vaqt mashq qilish, kuylashni kanda qilmasligi shart hisoblanadi. Ayniqsa, ma'lum mashqlardan so'ng ovoz qizdirib amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Qizib turgan ovozda sovuq suv ichish yoki o'ta issiq suv ichish, sovuq havoda kuylash ham ovoz paychalarini shkastlanishiga olib keladi.

¹⁵ Фальцет усулини, айни пайтда таниқли хонанда Таваккал Кодиров ижроси мисолида тасаввур этиш мумкин. Лекин, кайд этиш жонзки бу хонанда фальцет ижро усулини ўзбекона "танглай орти овози" усули билан уйғун ҳолда тараннум этади. Натъжада овоз кучли ва забардаст қиефада янграйди.

Vokal xonandaligi amaliyotida ko'p uchrab turadigan yana bir nuqson, ovoz paylarini keragidan ortiq kuch bilan ishlatish yoki tanaffuzsiz keragidan ortiq kuylab ovozni zo'riqtirib qo'yishdir. Bunday vaziyatlarda ovoz paylarini davolovchi mutaxassis-foniator vrachga murojaat etish tavsiya etiladi. Vokal xonandasi doimo mashq va kuylash barobarida o'z ovozi issiq-suvoq va turli xastaliklardan ehtiyot qilishi tavsiya etiladi. Ayniqsa, mashq va kuylashdan so'ng turli yaxna chanqoq bosti ichimliklarni ichish taqiqlanadi.

Matn va talaffuz masalalari.

Vokal xonandalik san'atida asarning mazmuni va ushbu mazmuni ochib berishdagi matn talaffuzi va unga bo'lgan e'tibor alohida ahamiyatga egadir. Zero, she'r (matn) o'lchovi bo'g'inlar jihatidan, usul (musiqiy ohang va musiqiy kuy) ruknlari bir-biriga mos kelishi zarurdir. Vokal xonandalik ijrochiligida ham nafaqat she'r vazni, balki she'r mazmuni ham juda katta ahamiyat kasb etadi. Xonandalik ijodiyotida so'z-matn ma'nolarini to'g'ri va aniq holda talaffuz etish va tinglovchiga etib borishini ta'minlashda xonandaning ovozi bilan bir qatorda nutq va so'z talaffuziga ham bog'likdir.

Xonandalik amaliyotida matn talaffuzining ba'zi turlari uchrab turadi. Bulardan biri so'z (matn) talaffuzi. Bu jarayon uchta umumiy ko'rinishda uchrashi mumkin.

a) tug'ma yoki tabiatan nuqsonli talaffuz. Matn talaffuzida xonandaning harflarni, bo'g'inlarni, so'zlarni, jumllalarni noto'g'ri talaffuz qilishi xonandaning **tug'ma yoki tabiata nuqsonli talaffuziga** aytiladi. Aytim vaqtida "x" va "x", "f" va "k", "r" va "l" harflarni almashinib ketishi yoki "q", "o" harflar o'rniga "ts", "r" harfni o'rniga "y" deb ishlatishi amaliyotda uchrab turadigan va odatda tabiiy hol sifatida qaraladi. Ularni ijroda to'g'ri talaffuziga erishish mumkin. Uning uchun muntazam maxsus tanlangan so'z bo'g'inlariga asoslangan mashqlar asosida tartibli mashg'ulotlar o'tkazish lozimdir. "s", "z" va "r" tovushlarni to'laqonli talaffuz etolmaslik holatlari ham uchrab turadi. Fan bu kabi tilida, so'zida tug'ma yoki tabiatan nuqsoni bor xonandalar bilan asosan defektolog mutaxassislar yordami kerak bo'ladi.

b) shevaga xos talaffuz. O'zbekistonda qadimdan 92 ta urug' mavjud bo'lib, ular mahalliy yashash tarzi, so'zlashuv nutqi, qadimdan urug' va

qabilalarning xududiy birikuviga qarab o'ziga xos til shevasiga so'zlashib kelgan. Ushbu xususiyat ularning urf-odat, an'ana, qadriyat, bayramlari va marosim tadbirlarida o'z aksini topgan. Shunday ekan so'zsiz ushbu shevaga xos talaffuz ularning musiqiy an'analariga ham o'zini ta'sirini ko'rsatgani tabiiydir. Misol tariqasida, qo'ng'irot urig'iga xos aholi Respublikamizning deyarli barcha xududlarida yashab kelmoqda. Ular asosan "y" harfini "j" o'rniga ishlatadi. Xuddi shuningdek, qatag'on urug'iga mansub tub mahalliy aholi "ya" harfi o'rniga "yo" va "o" harflarini ishlatadi. Mazkur holatlar ham ularning qo'shiqchilik ijodiyotiga o'zini bir muncha ta'sirini o'tkazadi. Odatga ko'ra, unli tovushlarni kuylaganda tembr jihatidan bir xil sof holatda talaffuz etiladi. Ijro jarayonida urg'u, cho'zim tushayotgan unli harflar talaffuzi o'qilganda qanday bo'lsa kuylashda ham shu qoidaga rioya qilinadi. Shu bois she'riyatning nutq, talaffuz qoidalarini o'zlashtirish xonandalar uchun juda muhim ahamiyatga ega.

v) mahalliy uslublarga taqlid talaffuz. Ma'lumki, o'zbek xalq musiqa ijodiyoti o'ziga xos rang-barang ko'rinishini lokal (mahalliy) uslublari bilan namoyon etadi. Asosan qo'shiq janri keng tarqalgan "Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy uslubi"da xonandalari ko'pincha Xorazm mahalliy uslubidagi aytilarni kuylashga harakat qiladi. Ba'zi hollarda ijro jarayonida xonandaning Xorazm shevasidagi ayrim so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilishi sezilib qoladi.

Bunday hollarda xonandadan so'zlarni badiiy tilda to'g'ri va ravon talaffuz qilishi, ritm va nafasni boshqara olish tavsiya etiladi. O'zbek xonandaligida kam uchraydigan, so'zlashuv oxangida aytiladigan deklamatsion uslub ham mavjud bo'lib, keyingi paytlarda mazkur uslubni estrada janrida ko'proq ommalashganini ko'rish mumkin. Vokal musiqasining bir turi sifatida intonatsiya va ritm jihatdan diklamatsiyali so'zga yaqin bo'lgan – rechitativ¹⁶ usulidan ham keng foydalaniladi. Odatda xonanda ijro davomida ovozni turli shakllarda - yug'on, ingichka, yumshoq yoki qattiq holatda ijro etadi. Bunday go'zal, chiroyli so'zlar, to'g'ri va aniq ohang sof va tabiatli tarannum etilishiga alohida e'tibor berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

¹⁶ Речитатив – лотинча (recitare) овоз чиқариб ўқиш.

So'z va ohang.

Xonandalik ijodiyotida so'z va kuyning bir-biriga nisbatan ohangdosh sifatida mutanosib kelishi ijroda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, tovushlar majmuasida vujudga keladigan har bir musiqiy kuyning o'ziga xos alohida ma'nosi bor. O'z o'rnida unga bog'langan so'z ham muhim g'oyani ifoda etadi. Aslida, she'r oldin bitiladi. Bastakor yoki xonanda so'zni g'oyasi, mazmuni, ifoda kuchini his etgan holda unga kuy yozadi. She'r qanchalik kuchli bo'lsa, unga bastalanayotgan ohang undanda kuchli bo'lishi va so'zni mazmun mohiyatini to'la ochib berishi lozim. She'r qanday vazn (barmoq, aruz)da yaratilganligi kuyning bir qator qonun qoidalari to'g'ri kelishi kerak bo'ladi. She'rni mazmuniga qarab kuyning xarakteri, ritm, o'lchovi va boshqa xususiyatlari namoyon bo'ladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, bu jarayonda so'zning g'oyasi kuyni yaratilishiga zamin yaratadi. So'z va ohang bir-birini to'ldirmas ekan u tinglovchilar tomonidan yaxshi qabul qilinmaydi.

Ijrochi qo'shiq kuylashda so'z va ohang mazmunini to'la ochib berishi kerak. Buning uchun u avvalom bor she'rni to'liq o'rganishi, uni ichida yashashi, uning mohiyatini anglashi va ohang mazkur she'r mazmunini to'la ochib berishini ta'minlashi lozim. Bunda ayrim holatlarda improvizatsiyaga e'tibor qaratish, nola va unli harflarni cho'zimga e'tibor qaratish kabi qator jihatlarni puxta egallashi lozim bo'ladi.

So'z va ohangda xonandaning ovoz imkoniyatlari juda muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalam bor xonanda qanday ovoz imkoniyatlariga ega, ijroda vokal asarini qaysi pardalarda kuylay oladi. Xonanda o'z ijrosini eshitishi va to'g'ri idroklashi lozim. Bu jarayon xonanda ijrochiligida muhim omillardan sanaladi, xatto, cholg'u asboblarida jo'rnovozlik qilinayotgan ohanglarni ham eshitishi va u bilan hamohang kuylash ko'nikmasini shakllantirgan va malakasini egallagan bo'lishi kerak. Xonandaning musiqa asarini so'z va ohangini chuqur xis etishi va asar ruhiga, obraziga kirishi hamda ushbu asar ijrochi bo'yicha va o'z imkoniyatlarini ko'rsata olishi uchun zarur bo'lgan quyidagi omillarni muhim deb hisoblash maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Asarning she'r matnini chuqur anlab etish;
2. Kuy-ohang tuzilmalarini she'r matni mazmunini ochib bera olganligi;
3. Kuyni ohangdorligi va uning ritmik xarakterini bilish;

4. So'z va ohangda unli tovushlarning ahamiyatini sezish;
5. Ijroda nafasni boshqarish usullarini bilish;
6. So'z va ohangda o'rta avj, avj pardalarni olish imkoniyati.

Ijrochilikda muhim bo'lgan sifatlarini alohida olganda, har biri o'ziga xos ahamiyatga egadir. Chunki, asarning umumiy g'oyasini ifoda etishda musiqa va so'zning mazmuni, ularning ohang vositasidagi talqini, kuy rivojining pag'onalari, dinamikasi. Har bir kuy va so'z jumllarining boshlanish tugallanishlari, kuyning metro-ritmik jihatlarining uzaro uyg'unligi, xonandaning bilimi va imkoniyatlari darajasini anglatadigan tomonlaridir. Ana shu jarayondagi barcha xususiyatlar uyg'un holda asarning ichki va tashqi dunyosini ifoda etish uchun lozim bo'lgan musiqiy omillar hisoblanadi.

Shular bilan bir qatorda musiqiy asarning ichki qonuniyatlari ham ijroni yuksak darajada bo'lishini ta'minlaydi. Bu qonuniyatlar tovushqator, uslub tuzuk, turg'un tovushlar va kuyning tarkibiy shakllari bilan izohlanuvchi xususiyatlari bilan ta'riflanadi. Odatda, har bir musiqiy asar ma'lum tovushqator tizimida harakat qiladi. Harakatlarning qay darajada ifoda topishi asarning bastakori, qolaversa, ijrochi mahoratida namayon bo'ladi.

Ijro jonlanishi tovushlarning tuzuk tarkibidagi o'zaro bog'lanishiga asoslanadi. Lekin, bu bog'lanishda har bir kuy bo'laklari, jumllari alohida va asar doirasida jumllarning bir butunlikda tarkib topishi, tovushqatorning asosiy va yondosh tovushlarning mutanosib tarkib topishi juda muhim. Bu ma'noda xalq va mumtoz ijodiyot janrlari o'z shakliy tarkiblariga egadirlar. Xalq musiqa ijrochiligida, ayniqsa badixago'ylik, erkin talqinga asoslangan ijro turlarida, asar tarkibi qisman bo'lsada o'zgarishga uchraydi. Lekin, bu tarkibiy qismning asosiy tizimini shakllantiruvchi turg'un tovushlar harakatdagi turg'un tovushlar, ularning rivojlanish jarayoni va tugallanish jabhalari asoslangan holda gavdalanadi.

IV-BOB. VOKAL VA ZAMONAVIY MUSIQADA OVOZ TARBIIYASI

Vokal xonandaligida ovoz tavsifi.

Vokal xonandalik san'ati rivojining dastlabki davrida ovozlar tavsifi oddiy bo'lgan: ikki turdagi erkaklar va ikki turdagi ayollar ovozlari, bu bo'linish shu kunlargaacha davom etgan. Vokal dasturlarining

murakkablanishi natijasida ovozlarning tavsifi jihatidan bora-bora differentsiyalandi.

Ayollar ovozi ko'krak registri, bosh va ko'krak tarangi birlashgan markaziy va diapazonning yuqori qismida bosh registri (yorqin, ochiq jaranglaydi) farqlanadi. Professional xonandalik ovozi ikki oktavalik diapazonga ega bo'lishi va diapazonlik butun davomida tekis taranglanishi lozim. Bunga aralash jaranglik rivojlanishi hisobiga erishiladi. Ovozlar tembr va balandligiga ko'ra tasniflanadi. Ovozlarning asosiy oltita turi farqlanadi:

Ayollar ovozlari:

- soprano;
- mezzo-soprano;
- kontralto.

Erkaklar ovozlari:

- tenor;
- bariton;
- bas;

Bolalar ovozi:

- diskant - o'g'il bolalar ovozi.

Soprano ayollar ovozlari quyidagilarga bo'linadi:

koloratur soprano - eng baland ayollar ovozi (diapanozik, cheksiz kumush yuqori tembrli nafis ovoz engillik eng murakkab ruladalar, keng sakrashlar, nozik melizmlar va hayratomuz bravurpa asonxorim konini beradi.

lirik soprano - (diapazon birinchi oktava do - uchinchi oktava do, re). Kantilen yumshoq, yorqin, jaranglovchi ovoz.

lirik-dramatik soprano - hajmliroq, juda ifodalali ovoz bo'lib, unda yumshoqlik, kantilena va spinto birlashadi.

dramatik soprano - kuchli, hajmli, yorqin tembran ovoz. Bu unga butun partiyani emotsional ko'tarinkilik bilan ijro etish imkonini beradi.

mezzo-soprano - soprano va kontralto o'rtasidagi o'rtacha ovoz.

lirik mezzo-soprano - tembriga ko'ra yorqin va rangi sopranoga yaqin ovoz (diapazon - kichik oktava lya - ikkinchi oktava lya, si);

markaziy metstso-soprano - yirik, zich, kuchli ovoz.

koloratur messo-soprano - juda noyob, yorqin, nozik va harakatchan ovoz, eng murakkab passajlar, fiorituralar va ruksidalami kuylash imkonini beradi.

kontralto - eng past ayollar ovozi. Barxatli, ajoyib ko'krak notali ovoz. Erkaklar ovozlari quyidagilarga bo'linadi:

lirik tenor - kumushsimon, yumshoq, juda harakatchan koloriturali ovoz (diapazoni - birinchi oktava do - uchinchi oktava si, do);

lirik-dramatik tenor - ko'proq agint va zich ovoz;

dramatik tenor - hajmli, yorqin, metali, tabiatan juda kuchli ovoz;

kontr-tenor - metstso-soprano tessiturada jaranglaydigan ovoz. Rivojlangan faluet bilan kuylanadi. Qadimiy bir musiqada qo'llanadi;

lirik bariton - baland, yorqin, harakatchan ovoz (diapazoni: katta Iya - birinchi oktava Iya);

dramatik bariton - barxatli (baxmal), hajmli diapazoniga ko'ra kuchli ovoz;

bas - eng past erkak - ovozi (diapazoni: katta oktava do - birinchi oktava - re, mi). Yuqori bas - odatda xarakterli, harakatchan, komik ovoz;

markaziy bas - yirik, yorqin, juda sof ovoz, juda boy ko'krak registri;

bas-profundo - juda past, ko'krak, juda hajmli ovoz. Ko'proq cherkov - xor musiqasida ishlatiladi;

diskant - o'g'il bolalar ovozi. Vokal partiyalariga ko'ra past, o'rta va baland diskant farqlanadi.

Ovoz rangi. Hamma usullar yangilashishi yoki og'irlashishi, shunga qaramay ular o'zgacha. Ovozlar xilma-xilligi, rangi vokal ijrosida eshutiladi, vokal akkordlarini kengaytirib kuylaganda nafas lab yoki burun teshigidan nafas olinadi. Hamma xonandalar vokal janrida kuylaganda har birining ovoz rangi, temбри turi farqi bilinadi. Vokal janrida kuylash keng ko'lamli, ovoz rangi qorong'ulashuvi yuz beradi. Vokal kuylash shaklini o'zgartirish mumkin, o'zgartirishning bir qancha yo'nalishlari bor, ya'ni xonanda o'z ovozi tembrini o'zgartira oladi.

Erkaklar ovozi. Tenor (s-s²) tenor-altino - engil va tiniq yangraydi d²gacha chiqishi mumkin. Xarakterli: lirik - mayin, kumushsimon tembr-chiroydan xoli. Lirik dramatik: - diapazoni keng - baquvvat ovoz, dramatik xolatni ochib beradi.

Bariton (A-g¹)

Lirik dramatik: - tenor tembriga yaqin, lekin bariton jihatlariga ega.

Lirik dramatik: - yorqin tembr, s yozilarli kuchga ega.

Dramatik: - sadolanish jixatdan bas ovozigga yaqin. Kuchli, partiya tessiturasi past.

Bas bariton: - Bas (F-f¹)

Bas kantanto: - baland, kuychan bas.

Markaziy bas: basning jarangdor, kuchli qismi uning makazi hisoblanadi.

Past (bas profundo: - "chuqur" bas past registrda to'liq va past sadolanadi. Oktava bas partiyasi - xor jamoalarida ishlatiladi.

Ayollar ovozi. Soprano (c*-c³)

Koloratura - eng engil, tiniq va yorqin sadolanadi. Xarakatchan ovoz.

Lirik-koloraturo: yo'g'onroq to'laroq eshitaladi. Lirik-iliq, yoqimli tembrga ega bo'lib yumshoq sadolanadi.

Liriko-dramatik: - diapazoni bo'rttirilgan, kuchli sadolanadi.

Dramatik: - ko'krak tembr baqquvvat sadolanadi. Pastki ko'krak registri tovushlarga ega.

Metstso soprano.

Yuqori: - pastki ko'krak, illik tembr

Past: - yanada chuqurroq, qalin sadolanadi past tembr.

Kontralto. ayollarning eng past ovozi bo'lib, quyuq tembrga ega, juda kam uchraydigan ovoz.

Unutmaslik kerakki, ovoz rangini o'zgartirishdagi uch xil tamoyilga rioya etishni nazorat qilish kerak. Ular quyidagilardir:

- og'iz shakli;
- hiqildoq;
- til shakli;
- og'iz ko'rinishi;
- yumshoq tanglay;
- nafas olish uchun ochish yoki yopish;

Har bir bo'linish mahorat bilan individual ovoz tembrini ta'sirida yuzaga keladi. Bir marta ovoz yo'lini individual qo'shilishidan bo'linishigacha nazorat qilish natijasida ovoz rangini to'la tushinib olish mumkin.

Registr. Registr so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib "registrum" - "ro'yxat", "registum" "yozib qo'yish", topshirib qo'yish ma'nolarini anglatadi. Musiqada registr bir maqsadda ijro etilayotgan ma'lum bir qism

tovushqatorining qo'shni tovushlar bilan qo'shib kelishi. Odatda registr bilan (yuqori), o'rta va pastga ajratiladi. Xonandalar ovozi esa ko'krakdan, o'rta va yuqori (eng baland) turlarda bo'ladi¹⁷. Ovoz registri deganda uslubiyot nuqtayi nazaridan tovushlarning o'ziga xos sadolanishiga, fiziologik nuqtayi nazaridan ovoz paylarining o'ziga xos ish faoliyatiga tushunish deyiladi.

Erkaklar ovozi registrlari. Erkaklar ovozi ko'krak va bosh (faltset) registriga ega. Ovozning ko'krak va faltset sadolanishi ovoz paylarining ish faoliyatiga bog'liq. Erkaklar ovozida ko'krak registri deyarli bir yarim oktavani tashkil etadi. Ko'krak registrida ovoz paylari chetki mushaklari butun ovoz paylari bo'ylab bir-biriga yaqinlashib yopiladi. Faltset ya'ni bosh registrida ovoz paylari oxirigacha yopilmaydi va faqat chekka qismi tebranadi. Aralash ovoz hosil qilishda (miksd-lad)¹⁸ ovoz paylari ko'krak va faltset tiplarida faoliyat yuritadi. Registrdan-registriga o'tish ovoz paylari ishini o'zgartiradi.

Qadimgi italyan maktablarida erkaklar ovozining tabiiy ko'krak va faltset registrlari qo'llanilgan. 1825 yildan boshlab, esa tenor ovozlari miksd sadolanishda foydalanganlar. Frantsuz tenori T.Dyupre miksd ovozining barcha imkoniyatlaridan foydalanib, yuqori "do" gacha chiqqan. Aralash registr diapazonning tekisligiga erishishda va yuqori notalarning to'laqonli sadolanishida qo'l keladi.

Ayollar ovozi registrlari. Ko'krak registri ayollar ovozida diapazonining eng pastki notalarini o'z ichiga olgan bo'lib, tertsiya yoki kvinta qamrovida bo'lishi mumkin. Bosh registri diapazonning eng yuqori notalariga boradi. O'rta registr diapazonning oktava va undan ko'proq qismini egallagan. Ayollar ovozi registrlari, erkaklar ovozi registrlari kabi ovoz paylari ish faoliyatining o'zgarishiga bog'liq.

Ayollar ovozi diapazonning tekisligi ustida ishlash asosiy printsiplari xuddi erkaklarniki kabi: diapazon markazida ovoz hosil qilishda aralash registrlarning ish faoliyatini benuqsionligiga erishish, nafasni astalik bilan etkazish, yuqori notalarda "O" va "U" unlilarining yopiq ijrosi, yumshoq ovoz hujumi va ovozning erkin sadolanishi.

¹⁷ И.А.Ақбаро. Мусиқа луғати. Тошкент. Ғ.Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987 й. 280 б.

¹⁸ Миксолидий лади – табиий ладлардан бўлиб, товущқатори табиий товущ қатор ладининг VII пағонаси паст бўлиши билан ажралиб туради.

O'tkinchi tovushlar va ovoz harakatining ravonligi.

Ovoz harakatining ravonligiga erkaklar ovozida, ovozni to'g'ri hosil qilish va registrlarni aralashtirish orqali erishiladi. Xiralashgan tovush kekirdak trubalari impedansi kengayishi natijasida miksdlash (aralash) paylarining asosiy ish faoliyatini namoyon etadi. Berkik - yuqoridagi ikki tipning birlashgani. Berkik tovush usullari: taqlid, O va U unli harflarning chuqur talaffuzi, mikstlash va xiralashtirishidir. Aralashtira olish xarakteri o'quvchining ovoz apparati individual xususiyatlariga bog'liq. Diapazonning o'rta qismida tovushni to'g'ri hosil qilish, dinamik jihatdan to'g'ri tuzish, nafas etkazib berish nuqtai nazaridan sadolanishning "yuqori pozitsiya"da bo'lishi diapazonning yuqori qismida tovushni berk holatini to'g'ri topish degani. Ovozning yuqori notalarga o'tishini, berk va aralash ovoz hosil qilishni qo'yidagi "davolovchi" vositalar engillashtiradi: faltset, nafas olishdan keyingi hujum. Shuning uchun tovushni o'rtacha kuchi, yumshoq tovush hujumi, yumshoq sadolanish, O va U unilarda impedansni kengayishi, uzluksiz va yumshoq nafas, tovush tayanchi hisi tavsiya etiladi.

Ayollar ovozida diapazon davomida tovushlar tekisligiga erishish, diapazonning o'rtasida ovoz hosil qilishning aralash turi tabiiy borligi uchun osonlashadi. Ayollarda diapazon tekisligi ustida ishlash printsiplari xuddi erkaklarnikiga o'xshashdir.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish

Talabalar bilan amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda ularning ovoz imkoniyatlari va vokal tayyorgarligi turlicha bo'lganligini hisobga olgan holda dastur repertuari ro'yxati oddiydan murakkabga tamoyiliga qarab, turli mavzudagi asarlar kiritiladi. O'quv mashg'ulotlari jarayonida faqat va faqat vokal mashqlarini olib borish tavsiya etiladi. Chunki amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchi-yoshlarning ovozini sayqallanishiga, texnik-ijrochilik mahoratini oshib borishiga vokal mashqlarining o'rni katta. Ro'yxatga kiritilgan asarlarni talabani ovoz diapozoniga mos tonlikka transpozitsiya qilib berish tavsiya etiladi. Chunki, vokal xonandaligi asarlari uchun ovoz, diapazon, nafas juda muhim rol o'ynaydi.

Uzluksiz o'tkaziladigan akademik kontsertlar, turli xil ko'rik-tanlovlar, shu jumladan, "O'zbekiston - vatanim manim", "Respublika qo'shiq bayrami", "Yosh vokalistlar" va boshqa shu kabi tanlovlarda qatnashishlari talabalarni vokal malakalarini mustahkam egallashlariga erdam beradi. Romans yoki musiqali drama, operalardan ariyalar ijro etish mahoratlarini o'rganish, uzluksiz tarzda ma'lum ketma-ketlikda, oddiydan murakkabga borishini ta'minlash zarur.

Romanslar bir ovoz uchun yozilgan, turli mavzu, xarakter va tuzulishdagi vokal kamer asari bo'lishi mumkin. Bu janr jahon va o'zbek kompozitorlari asarlarida yaxshi rivojlangan. O'zbekiston kompozitorlari omma o'rtasida tarqalgan akademik xonandalik asarlari ohangida romanslar yaratib, bu janrni yanada boyitdilar. Ushbu asarlar asosan Navoiy, Furqat, Muqimiy g'azallariga S.Yudakov, M.Burxonov, M.Ashrafiy, T.Sodiqov va boshqa kompozitorlar tomonidan yaratildi. Talabalar dasturida qo'llaniladigan musiqiy drama va operalarda ariyalar mukammallashgan keng ko'lamda, lirik va dramatik mazmunli asarlar hisoblanadi.

Bu asarlar talabalarning vokal-texnik bilimlarini yanada chuqurroq egallashi, aralash nafas ustida ishlashi, yumshoq hujum mashqi, aniq intonatsiya, artikulyatsiya, legato, stakkato, harakatchanlik, kantilena, arpedjio, filirovka uslublarini o'rganish, asarning badiiy tomonlarini mukammal o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'lib, vokal xonandaligi asarlarini kuylash mahoratini oshiradi.

Xonandalik ovozi.

Ushbu tushuncha insonning kuylash qobiliyati bilan bog'liq nutqdan farqli o'laroq, tovushlarni aniq balandlikda, uzoq davom etishi jarayoni tushuniladi. Ular asosan unilarda namoyon bo'ladi. Xonandalik ovozidan inson bolalikda musiqiy eshitish va ovoz apparati rivojlanishi darajasiga ko'ra foydalana boshlaydi.

Maishiy (qo'yilmagan) va kasbiy (professional) xonandalik ovozi farqlanadi. Ovozni qo'yish deb uni professional qo'llash maqsadida moslashtirish va rivojlantirish tushuniladi. Yorqinlik, go'zallik, jarang kuchi va davomiyligi, diapazon kengligi va toliqmaslik, noziklik kabi sifatlar, ko'p jihatdan ovoz apparati tabiiy xossalari bilan belgilanadi va ovozni qo'yish jarayonida rivojlantirilishi mumkin. Ovoz opera-kontsert kuylash uchun, xalq qo'shiqlari, estrada kuylash uchun asosiy rol o'ynaydi.

Xonandalik ovozini belgilovchisi asosiy xususiyatlar bu - tembr go'zalligi va tovushni uzoq tutib tura olish va nafasni to'g'ri va belgilangan me'yorda sarflash mahoratini egallanganlik darajasidir. Opera-kontsert ovoz katta zallarda yaxshi eshitalishi, ya'ni go'yo samoga parvoz qilayotgan bo'lishi kerak. Jaranglik, metallik ovozlar kabi parvozlidir. Metallik va parvozlik ovoz spektrida yuqori oberto¹⁹nlar guruhi, yuqori xonandalik tovushini mavjudligi bilan belgilanadi. Ovoz tarangi, dumaloqligi va yumshoqligi obertonni kuchlanishiga bog'liq. Yuqori va past xonandalik tovush tebranishi vibrato sekundiga 5-6 marta lipulsatsiya, ya'ni ovozning go'zalligi va kuyiluvchan xarakterini belgilaydi.

Xonandalik ovozining muhim sifati uning kuchidir. Opera kuylash kuchli, katta zalni to'ldirishga qodir va orkestr jo'rliги fonida eshitaladigan ovozni talab etadi.

Effekt. Matn yoki melodiyada turli rang-barang ovozlar mavjud. Ushbu ovozlar xonandaning uslubi yoki ijro ifoda vositasida, uning ta'kidlanishida namoyon bo'ladi. Effektlar asosan vokal ijrosida ko'p vujudga keladi. Xonandalar o'z ijro uslubi va kuylash, ovoz imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda har xil bo'ladi. Effektlar ham xonandaning ana shu xususiyatlariga qarab, turli shaklga ega bo'ladi.

¹⁹ немисча обер юқори, гармоник оҳангдош товушлар

Bunga anatomiya, psixologiya, energetik quvvat, jismoniy jihat va xonanda temperamenti ham ta'sir o'tkazadi.

Xonanda ijro holatida ma'lum bir harakatlarni faol va aniq bajaradi. U ijro etishga kirishishdan oldin effekt bilan boshlash muhim bo'ladi, bunda quyidagi umumiy tamoyillarini nazorat qilish mumkin.

Effektlar uchrashi:

- burishgan;
- g'ichirlagan va g'ichillash;
- qarsillagan;
- irillagan;
- hirilloq;
- baqiroq;
- siniq ovoz;
- titroq;
- bezakli texnik.

O'ziga ishonish. Xonanda har doim sahnada bo'ladimi u, yoki teleradio efiri uchun asar yozishda bo'ladimi yoki mashg'ulotlarda bo'ladimi har qanday holatda ham o'ziga qulaylikni his qilib kuylash tavsiya etiladi. Agar qulaylik his qilmasdan kuylansa, ijro sifatsiz chiqishi, ovoz paychalariga shikast etishi, o'z ijrosidan o'zi qoniqish hosil qilmasligi yoki boshqa noxush holatlar yuzaga kelishi mumkini. Xonanda qanday kuylasa ham ijroni, o'z ovozini tushunib, his etib kuylashi shart²⁰.

Tovush paydo qilish organlari - bo'g'iz va burun bo'shliqlari nafas olish naycha yo'llari va o'pka tovush hosil qiluvchi a'zolar hisoblanadi. Hiqildoq nafas olish naychasi (traxeya) va halqum orasida joylashgan. Nafas u yo'lining bo'shlig'i tikkasiga kesilgan holda qum soatiga o'xshaydi. Hiqildoq ichidan shilimshiq parda bilan qoplangan va to'rtta tomoq tog'ayidan iborat. Ular qalqonsimon, ikkita qora ta'lat va barmoqsimon bo'ladi. Ular o'zaro bog'langan va mushaklar bilan ta'minlangan, tomoq tog'aylari yoshiga qarab sekin - asta suyakka aylanib boradi. Bo'g'izning yuqori bo'limi - ustki boylam bo'shlig'i - yolqon tovush boylamigacha cho'zilgan.

Oshqozon ikki tomonlama chuqurlashgan qismi yolg'on tovush boylamidan haqiqiy ovoz boylamigacha cho'zilgan. Hiqildoqning pastki

²⁰ Cathrine Sadolin. Complete vocal technique. 2012. Page 18.

boylam bo'shlig'i barmoqsimon tog'ayning pastki chekkalarigacha etadi, qalqonsimon tog'ay tovush paychasining uzunligiga bog'liq bo'lib, erkaklarda ayollarnikiga nisbatan uzunroq, kuchli rivojlangan. Bu hiqildoqning kattaligiga ta'sir qiladi. Ayollar hiqildoq'ining eng kattasi taxminan erkaklardagi eng kichkina bo'g'iz bilan teng. Hiqildoq til ostidagi harakatchan suyakka makamlangani va umurtqa oldi muskul pardasi bilan bog'langani sababli hiqildoq asta va faol harakat qilishi mumkin.

Yolg'on tovush boylamlari ashula aytishda qatnashmaydi, lekin ular tarkibida suyuqlik bilan ta'minlaydigan bezlar bo'lib, ular haqiqiy tovush paychasini namlab turadi. Haqiqiy tovush boylamlarining chet qismi ya'ni, qirg'oqlari sadaf rangga ega bo'ladi. Tovush paychasining ishida ikki guruh muskullar: ichki, tashqi cho'ziq muskullar ishtirok etadi va ular faoliyati natijasida tovush hosil qilinadi. Mazkur guruhdagilarning har biri ma'lum vazifani bajaradi. Tovush mushaklari ko'krak registrida tovush boylamlarining uzunligini, yo'g'onligini, kengligini o'zgartiradi, tovush oraliq'ini kengaytiradi va toraytiradi.

